



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

2-noyabr

payshanba

№ 44 (4634)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

DOIM YOSHLAR ORASIDA

Guliston shahar IIB HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, leytenant Abdumalik Umirboyevni doim yoshlar orasida ko'rish mumkin. Navqiron avlod vakillari bilan tezda til topishadigan inspektor ularning qiziqishini aniqlab, shunga yarasha ish olib boradi.

Unga biriktirilgan to'rtta umumta'lim maktabi, ikkita o'rta maxsus ta'lim muassasasida 3200 nafardan ortiq yoshlar tahsil oladi. Abdumalik Umirov o'qishga surunkali va sababsiz kelmayotgan bolalarni aniqlab, ota-onalari bilan suhbatlashadi. Ularni darsga qaytarish choralarini ko'radi. Shu bois ushbu ta'lim dargohlarida davomat namunali, intizom havas qilgudek. Qariyb uch yildirki, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan. Hattoki, profilaktik hisobda turuvchi bolalar ham yo'q.



SAYYOHLARNI CHORLAYOTGAN BUXORO



8



TENGDOSHLARIGA O'RNAK

11

EKSPERTNI ALDAB BO'LMAYDI



16

★ Ko'rik-tanlov g'oliblari

YANGI KUCH, YANGI SHIJOAT BILAN



Katta leytenant Ulug'bek Maxmasaidov Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor B. Abdullaev bilan taqdirlash marosimida.

Shahrisabz shahar IIB HPB 54/34-sonli ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika inspektori, katta leytenant Ulug'bek Maxmasaidov bu yilgi «Eng yaxshi profilaktika inspektori» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi. U Shahrisabz shahridagi 3500 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladigan «Qorasuv» mahallasiga xizmat ko'rsatadi.

Profilaktika inspektori mahalla fuqarolar yig'ini raisi Komil Kenjayev, hokim yordamchisi Jasur Qurbonov, yoshlar yetakchisi Jasur To'rayev, xotin-qizlar faoli Charos Ro'ziyeva bilan yaqin hamkorlikda samarali ish olib bormoqda. Shu bois mahalla «yashil» toifaga kiritilgan.

Mahalla hududida joylashgan 2-, 22-o'rta maktablarda profilaktika inspektorining tashabbusi bilan muntazam tarzda profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinadi. Qolaversa, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida maktabda turli kasb-hunar va sport to'garaklari tashkil etilgan. Bunday sa'y-harakatlar voyaga yetmaganlar o'rtasida ro'y berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning

oldini olishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Katta leytenant Ulug'bek Maxmasaidovning yosh bo'lsa-da, yetarli huquqiy va ma'naviy bilim-ga egaligi profilaktik tadbirlarning samarali tashkil etilishida, ta'sirchanligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

– Ko'rik-tanlovning respublika bosqichidagi ishtirokim yuqori baholanganidan juda mamnunman, – deydi katta leytenant Ulug'bek Maxmasaidov. – Bu kuchimga kuch, g'ayratimga g'ayrat qo'shib, kelgusida yanada shijoat bilan xizmat qilishga undadi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

BURCHIGA SODIQ QOLIB

Taassufki, qilmishini yashirish, qiyin vaziyatdan «silliqlik chiqish» maqsadida mansabdor shaxslarga pora taklif qilish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Urganchlik A.S. ham qonunga xilof xatti-harakatini «bosdi-bosdi» qilish uchun pora berishdek og'ir jinoyatga qo'l urdi.

Nafs quliga aylangan bu kimsa mo'may daromad topish ilinjida giyohvandlik vositalari oldi-sotdisi bilan shug'ullana boshlaydi. Ko'p o'tmay, uning bu qing'ir ishidan ichki ishlar organlari xodimlari xabar topadi. Zudlik bilan A.S.ning kundalik turmush tarzi, yurish-turishi kuzatuvga olinadi va viloyat IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasi xodimlari tomonidan maxsus tadbir o'tkaziladi.

Tadbirda A.S.ga tegishli bo'lgan «Malibu» rusumli avtomashina xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida 6,16 gramm opiy hamda 0,93 gramm «Tramadol» psixotrop moddasi borligi aniqlanadi. Qilmishi fosh bo'lganidan sarosimaga tushgan A.S. jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish maqsadida viloyat IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, mayor Sh.Ismoilovga 5000 AQSH dollari miqdorida pora bermoqchi bo'ladi. Unga pora olish va berish jinoyat ekani, bunday xatti-harakat javobgarlikka sabab bo'lishi bir necha bor tushuntiriladi. Ammo giyohfurnush bu ogohlantirishlarga e'tibor bermay, mayor Sh.Ismoilovni pora olishga undashda davom etadi...

O'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro A.S. mas'ul xodimga taklif etgan pulning bir qismini, ya'ni, 4000 AQSH dollarini pora tariqasida bergan vaqtida ushlendi. Holat yuzasidan A.S.ga nisbatan qo'shimcha jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

★ Zamonaviy texnologiyalar



KUZATUV KAMERALARI AFZALLIKLARI

Davlatobod tumanining «Yangi tong» mahallasida osoyishtalikni ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida ko'chalarga, ko'p qavatli uylar oldiga, savdo do'konlari peshtoqi-ga videokuzatuv kameralari o'rnatilgani o'zining amaliy natijalarini berdi. Tungi chiroqlar esa doimiy gavjum ko'chalarda xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratdi.

7600 nafar aholi istiqomat qiladigan mahallada ayni paytda 187 ta kuzatuv kamerasi bo'lib, ularning 66 tasi profilaktika inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilingan.

– Kuzatuv kameralari o'rnatilgach, o'tgan yilning mos davriga nisbatan joriy yilning o'tgan davrida jinoyatchilik kamaydi, – deydi mahalla profilaktika inspektori, leytenant Bobur Sotiboldiyev. – Kuzatuv kameralarining xizmat xonamizga

integratsiya qilingani esa aksariyat jinoyatlarni ochishda qo'l kelmoqda.

Shu kunlarda tumandagi boshqa mahallalarga ham videokuzatuv kameralari o'rnatish ishlari olib borilyapti. Bu jinoyatchilikning oldini olishga, aholining xotirjam hayot kechirishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

POSBON BO'LR YIGITNING MARDI



Chimboy tumaniga «Labo» avtomashinasida yuk olib kelgan Qonisbay (ism o'zgartirildi) do'konlarga buyurtmalarni topshirish bilan birga, oldingi safar olib kelgan narsalarning pullarini ham yig'ib ketaverdi. Barchasini yig'ib bo'lganidan so'ng pullar solingan sumkaning og'zini mahkamlab, Nukus shahriga qaytishga chog'landi.

Yo'l-yo'lakay tezda kirib chiqqan degan xayolda avtomashina eshigini qulflamasdan tushib ketdi. Ikki-uch daqiqadan so'ng avtomashinaga qaytib, 19 million 500 ming so'm pul solingan sumkaning joyida yo'qligini ko'rdi...

Fuqaroning murojaatiga asosan hudud profilaktika inspektori, mayor Baxtibay Palimbetov dastlab voqea tafsilotlarini o'rgandi. Shundan so'ng shu yaqin atrofdagi videokuzatuv kameralari yozuvlarini ko'rib chiqdi. Videotasvirlardan birida «Cobalt» avtomashinasida kelgan uch yigitning pullarni olib ketayotgani aks etgandi. Ushbu avtomashina egasini aniqlash ishlari natijasida «Cobalt» Farg'ona viloyatida yashovchi shaxsga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu asosda jinoyat tezda fosh etilib, aybdorlar qo'lga olindi.

Mayor B.Palimbetovning xizmat faoliyatida bu kabi holatlar ko'p uchraydi. Uning jonbozligi tufayli tumanda o'ziga biriktirilgan «Jipek joli» makon fuqarolar yig'inida so'nggi yillarda jinoyatchilik keskin kamaydi. Joriy yilning o'tgan davrida esa bironta jinoyat sodir bo'lmadi.

Uning fidoyi xizmatlari munosib rag'batlantirilib, 2019-yilda «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsa, bu yil kasb bayramida «Shuhrat» medalliga munosib deb topildi.

B. Palimbetov 1985-yili Chimboy tumanida tavallud topgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'

davlat universitetining tarix fakultetini tamomlaganidan keyin ichki ishlar organi xodimi bo'lish niyatida hujjatlarini vazirlikka topshirdi. Ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini Taxtakopir tumani IIB navbatchilik qismi navbatchi yordamchisi lavozimida boshladi.

2016-yildan buyon Chimboy tumani IIB HPBda xizmatni davom ettirib kelmoqda.

– «Jipek joli» makon fuqarolar yig'ini tuman markazida joylashgani bois, ma'muriy idora va tashkilotlar, jamoatchilik maskanlari ko'p. Dehqon bozori, avtovokzal, 2 ta bank, 3 ta to'yxona va bir necha kafelar shular jumlasidan. O'tgan vaqt davomida mahalla faollari va mayor B.Palimbetov bilan birga hudud osoyishtaligini ishonchli ta'minlab kelmoqdamiz, – deydi makon fuqarolar yig'ini raisi Mayrambay Yelmuratov.

Hududda «mahalla beshligi»ning samarali ishlashi tufayli ko'plab muammolarga o'z vaqtida yechim topilmoqda. Misol uchun, o'rganishlar jarayonida hududda yashovchi S.Genjeyev ishga joylashish yuzasidan murojaat qilgandi. Murojaat o'rganib chiqilib, ushbu fuqaroga imtiyozli kredit asosida mototransport vositasi olib berildi. Hozir u yuk tashish xizmati bilan shug'ullanmoqda.

Bolaligidan sport bilan shug'ullanib kelgan B.Palimbetov shu kunga qadar ko'plab yutuqlarni ham qo'lga kiritib kelmoqda. Jumladan, 2011-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV xodimlari o'rtasida o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha musobaqada 3-o'rinni olgan bo'lsa, 2023-yilda profilaktika inspektoralari o'rtasida o'tgan musobaqada 1-o'ringa munosib deb topildi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Ta'tilga chiqib, o'zi tug'ilib o'sgan Andijon viloyatiga borgan podpolkovnik Abdulhamid Isamovni 25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan tabriklagani yaqinlari va do'stlari kelishdi.

M o'jazgina xonadonda bayram shukhi kezi turgan bir pallada Yashnobod tumani IIOFMB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Oybek Otaboyev qo'ng'iroq qilib, Prezidentimiz farmoniga asosan, «Mardlik» ordeni bilan mukofotlanganini aytdi. Bu xabar xursandchilik ustiga yana bir katta quvonch bo'lib qo'shildi. Mukofot sohibini oila a'zolari, qarindoshlar va do'stlari birma-bir tabriklashdi. Daf'atan uning ko'zlari namlandi va xizmat yillari xayolidan o'ta boshladi...

Poytaxtning Yashnobod tumani IIOFMBda faoliyat yuritayotgan podpolkovnik A. Isamov 30 yildan buyon shu sohada xizmat qilib keladi. Hozirda u «Ma'rifat» mahallasining profilaktika katta inspektori. Buni qarangi, bu hududda ish boshlaganiga qariyb 21 yil bo'libdi. 4 ming nafardan oshiq mahalla ahli bilan xuddi bir oilaning a'zolari-dek bo'lib ketgan osoyishtalik posboni o'z kasbini, xizmat qilayotgan mahallasini juda yaxshi ko'radi.

– Podpolkovnik A. Isamov o'z kasbining ustadisi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nasiba Abdurizqova. – Bir-birimizni tushunib, har bir masalada bamaslahat ish olib boramiz. Faollar hamda profilaktika inspektoralari bilan hamjihatlikdagi sa'y-harakatlarimiz o'z samarasini berib, «qizil» toifadagi mahallamiz «yashil»ga o'tdi. Bunda, albatta, A. Isamovning katta hissasi bor.

Qahramonimiz turmush o'rtog'i Ro'zixon opa bilan uch nafar qizni voyaga yetkazishdi. Ular hozir jamiyatda o'z o'rniga ega. Iroda va Malika tibbiyot xodimi, Umida esa ayollar sartaroshi.

– Mening kamtarona mehnatlarimni e'tirof etgan Prezidentimizga, vazirlik rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman, – deydi podpolkovnik Abdulhamid Isamov. – Qolaversa, shu kungacha mehnat qilib, obro'

orttirib, yutuqlarga erishib yurishimda ota-onam, oilam va ustozlarimning ham alohida o'rni bor.

Har bir kasbda yo'l-yo'riq ko'rsatib turguvchi ustoz bo'lmasa, shogird har maqomga yo'rg'alab ketishi mumkin. Abdulhamid aka ham ustozlarini unutmaydi. Doim



ularning holidan xabar olib, eslab turadi. O'zi ham ko'p yillik faoliyati davomida bir nechta shogirdlar yetishtirdi. Birgina shu «Ma'rifat» mahallasida xizmat olib borish mobaynida 15 ga yaqin shogird tayyorlabdi. Ularning ayrimlari viloyatlarda faoliyat olib borsa-da, hozirgacha ustozini bilan xabarlashib, ayrim masalalarda maslahat olib turadi.

Tanlagan kasbini sevib, halol ishlagan inson, bir kun kelib, albatta, e'tirof etiladi. Buni podpolkovnik Abdulhamid Isamov misolida ham ko'rish mumkin. U doim oddiy xalq orasida bo'ldi. Ularning dard-u tashvishi bilan yashadi. Bugun esa mashaqqatli mehnatlarining mevasini ko'rib turibdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



★ Лучшие в своем деле

Командир 4-го отряда батальона ППС СОБ УВД Самаркандской области майор Навруз Журамурадов, удостоенный медали «Жасорат», начал службу в органах внутренних дел рядовым в одном из отделов охраны ровно двадцать лет назад. За эти годы приобрел колоссальный опыт.

После окончания Джизакского государственного педагогического института Навруз решил посвятить свою жизнь служению Родине. Благодаря хорошей физической подготовке в 2007 года был переведен в спецотряд МООН. Затем были годы службы инспектором по делам несовершеннолетних, руководителем отдела профилактики правонарушений, начальником изолятора временного содержания.

– Вот уже год как я в патрульно-постовой службе, – говорит майор Н. Журамурадов. – Это постоянное движение в прямом и переносном смысле. Есть определенные трудности, но работать здесь интересно.

Рассказывая о самых распространенных правонарушениях, наш собеседник пояснил, что частые вызовы связаны с нарушением тишины в многоквартирных домах, вторую позицию занимают драки

и хулиганские действия в барах, кафе, на третьем месте – различные ссоры.

В ежедневном графике Н. Журамурадова – построение и развод, проведение инструктажа отряду, обучение и тренировки по физической подготовке сотрудников. Последнее занимает немаловажную роль в службе, потому что в поле зрения сотрудников особый контингент – хулиганы, дебоширы, пьяные

компании, которым весело, а другим небезопасно. Такая работа требует определенных качеств: выдержки, профессионализма, выносливости и соответствующих морально-нравственных установок.

Н. Журамурадов руководит отрядом, где служат более 50 сотрудников. С начала года ими задержано 16 лиц, находившихся в розыске. Среди личного состава есть новобранцы, к

каждому из них герой публикации проявляет индивидуальный подход, объясняет, что в основе отношений сотрудников лежат взаимовыручка и взаимопомощь. Обстоятельства бывают разные, в том числе неподчинение и сопротивление, поэтому нужны поддержка товарища, чувство плеча.

Майор Журамурадов рассказал о тонкостях службы. За день сотрудник проходит не менее 20 километров, а

то и больше. Это не прогулка, а пристальный контроль. Важно, чтобы не было нарушений. Кроме того, в патрулируемой дислокации – места большого скопления людей, где особенно необходимо обеспечение безопасности. Словом, работа не останавливается ни на минуту и наше спокойствие в надежных руках.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



ПРОФЕССИЯ – КРИМИНАЛИСТ

Команда экспертов-криминалистов ЭКЦ УВД Андижанской области заняла первое место на республиканском этапе конкурса «Образцовый экспертно-криминалистический коллектив».

Сегодня наш рассказ об одном из участников команды-победительницы – главном эксперте-криминалисте капитане Аббосбеке Шермухаммедове.

А. Шермухаммедов начал службу в 2019 году с должности эксперта-криминалиста ЭКО УВД Андижанской области. Затем два года проработал следователем следственного отдела при УКД ОВД по городу Андижану. С начала 2023 года является главным экспертом-криминалистом.

Отделение, возглавляемое капитаном А. Шермухаммедовым, занимается проведением технико-криминалистических экспертиз документов и почерковедческих экспертиз.

– Востребованность почерковедческой экспертизы объясняется тем, что при рассмотрении дел стороны в подтверждение



своих позиций представляют в суд различного рода документы. Это могут быть договоры, расписки, завещания, платежные ведомости, приходные и расходные ордера, накладные, – рассказывает капитан Аббосбек Шермухаммедов.

Профессия эксперта-криминалиста сложная, но интересная и многогранная. Выбирая эту сферу деятельности, необходимо помнить об ответственности, которая возлагается на представителей данной службы. Профессионалу должны быть присущи такие черты, как честность, неподкупность, беспристрастность. Ведь эксперт направляет расследование, от правильности сделанных выводов напрямую зависят судьбы людей.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

На снимке: (слева направо) капитан Аббосхон Шермухаммедов и старший эксперт-криминалист капитан Сарварбек Абдуллаев.



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ЙЎЛДОШАЛИ
ОТАНИНГ ЎГИТЛАРИ

Фарғона вилояти Учкўприк туманидаги Ободон қишлоғида истиқомат қилаётган ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник Йўлдошали ота Аҳматов бугунги кунда ёшларнинг чинакам маслаҳатгўйига айланган.

Йўлдошали ота 1947 йилда шу қишлоқда таваллуд топган. Хизмат фаолиятини 1969 йилда Қўқон шаҳар Ички ишлар бўлими қошидаги Қўриқлаш бўлимида оддий милиционерликдан бошлаган. Кўп йиллик ҳалол хизмат ва касбга садоқат натижасида сафдор ходимдан подполковник унвонигача бўлган масъулиятли ҳамда шарафли йўлни босиб ўтган.

Йўлдошали ота кўп йиллик хизмати даврида бир неча ўнлаб шогирдлар тарбиялаган, жиноятчиликнинг олдини олишда катта ҳисса қўшган фахрийлардан биридир.

Йўлдошали отанинг ўғли, капитан Бахтиёржон Аҳматов ота касбини муносиб давом эттирди. Кўп йиллар Учкўприк туманида профилактика инспектори бўлган Бахтиёржон 2015 йилда эҳтиром билан пенсияга кузатилди.

– Отам шогирдларига ҳам, менга ҳам энг аввало касбга садоқатли бўлишни, ҳалол ва тўғриси бўлишни ўргатди, – дейди Бахтиёржон Аҳматов. – Унинг ўғитларига таяниб, ҳалқимга кўп йиллар хизмат қилдим, ҳурмат-эътибор қозондим.

Турмуш ўртоғи Муборакхон Аҳматова билан аҳилликда 6 нафар фарзандни намунали инсонлар қилиб камолга етказган, юзлаб шогирдларга касб сир-асрорларини ўргатган, кўнгли очик, самимий ва дилкаш Йўлдошали ота билан суҳбатлашганда қалбингиз яйраб, руҳингиз маънавий озиқа олади.

Туман ИИБ бошлиғининг маслаҳатчиси, истеъфодаги майор Аҳмаджон Эргашов ва кадрлар гуруҳи ходимлари нуронийни тез-тез йўқлаб туришади.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

УСТОЗ – ШОГИРД

БИЗГА ЯХШИЛИК ТИЛАГАННИ
ЮРАК УНУТАРМИ?

Ички ишлар органларида «устоз–шогирд» аънана сиёсатининг тамал тошига айланган. Албатта гап катталар ва кичиклар ўртасидаги ёши, унвони ва иш стажига кўра, ўзаро муносабатлари ҳақида эмас, балки тажрибали ходимларнинг янги келган ёш ходимлар билан кўникмаларини алмашиши ҳақида кетмоқда.



Илҳомжон Абралов Андижон давлат чет тиллар институтини тамомлаб, бир неча йил қишлоқ мактабида ўқитувчи бўлиб ишлаганидан сўнг, 2008 йилда патруль-пост хизмати отрядига сафдор ходим сифатида қабул қилишди.

2018 йилда лейтенант И.Абралов ИИБ Транспорт ва туризм объектларида хавфсизликни таъминлаш департаментининг Андижон вилояти бўйича Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармасининг профилактика инспектори лавозимида хизматни давом эттирди.

Капитан И. Абралов Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси хизмат кўрсатадиган темир йўлнинг турли ҳудудларида хизмат қилишига тўғри келди.

– Хизматнинг ўзига хос жиҳатлари бор, – дейди профилактика инспектори, капитан И. Абралов, – Масалан, ҳозир «Андижон-2» бекатидан «Пойтуғ» бекатигача бўлган узунлиги 25 километрлик темир йўл қисмида хизмат олиб бораётган. Менга бириктирилган ҳудудда 15 та маҳаллий ўзини ўзи бошқариш йиғини, 5 та умумтаълим мактаби бор, бир қанча саноат корхоналари фаолият олиб боради.

Мактаб ўқувчилари ва маҳаллалар аҳолиси билан олиб борилаётган мақсадли профилактик тарғибот тадбирлар натижасида ўсмирларнинг йўловчи поездларига тош отиши, темир йўл яқинида уй ҳайвонларини боқиш, болаларнинг

темир йўлда ўйнаши, ёшларнинг қулоқчин таққан ҳолда темир йўл кесишмаларидан ўтиши каби ҳуқуқбузарликлар деярли барҳам топди. Афсуски, қоидабузарлар ҳам учраб турибди ва маъмурий жавобгарликка тортилмоқда.

Айтиш жоизки, менга бириктирилган ҳудудда поездлар ҳаракати жуда кўп. Бу нафақат юк поездлари, балки «Андижон–Наманган–Тошкент», «Андижон–Наманган–Тошкент–Қўнғирот» йўналишида қатновчи йўловчи поездлари, «Наманган–Андижон–Қўқон» шаҳар атрофига қатнайдиغان поезд ҳамдир.

Ҳудудни бир кунда айланиб чиқиш имконсиз. Шу боис бу ишни босқичма-босқич амалга ошириб, мактабларга кираман, маҳаллалар аҳолиси билан учрашаман, профилактик суҳбатлар олиб бораман.

Хизмат фаолиятимнинг илк давридаги устозларим – катта сержант Шухрат Маҳмудов ва сержант Отабек Раҳмоновни ҳамisha миннатдорлик билан ёдга оламан.

Бугун унинг ўзи ёшларга устозлик қилиб, кўплаб муносиб шогирдларни тарбияламоқда. Айтиш пайтда сафдор Иззатбек Мақсудовга мураббий этиб бириктирилган.

Борис КЛЕЙМАН,
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

Суратда: капитан Илҳомжон Абралов шогирди, сафдор Иззатбек Мақсудов билан.

БИР
ҲОВУЧ
ДУР

Ҳар бир жасоратли, ҳар бир адолатли
шахс Ватанга шон-шараф олиб келади.

Ромен РОЛЛАН,
француз ёзувчиси.



В образовательных учреждениях

В Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан состоялось открытие учебного кабинета Караульных войск МВД.



Он оснащен необходимым оборудованием и наглядными пособиями. Также здесь размещены экспонаты и фотографии, знако-

мящие с деятельностью Караульных войск.

Как отметил начальник Академии Вооруженных Сил полковник Ба-



бур Шаякубов, созданный кабинет будет играть важную роль в подготовке специалистов сферы, а в дни открытых дверей, проводимых в образовательном учреждении на регулярной основе, – способствовать приобщению учащейся молодежи к профессии защитника Родины.

Мероприятие продолжилось встречей трех поколений. В нем приняли участие командующий Ка-

раульными войсками МВД полковник Хасан Батыров, ветераны МВД и Вооруженных Сил.

В завершение встречи, перед собравшимися выступили Образцово-показательный оркестр и ансамбль Караульных войск. Состоялось вручение ветеранам памятных подарков.

Сирожиiddин ДЖУРАБАЕВ.

Актуально

ЭКОПАТРУЛЬ В ДЕЙСТВИИ

Сегодня все большую актуальность и глобальный характер обретают проблемы сокращения биоразнообразия, загрязнения окружающей среды, дефицита водных ресурсов. Эти процессы напрямую затрагивают и нашу страну.



Государство создает условия для осуществления общественного контроля в области градостроительной деятельности в целях обеспечения экологических прав граждан и недопущения вредного воздействия на окружающую среду.

Отныне проекты градостроительных документов подлежат общественному обсуждению в порядке, установленном законом. Государство в соответствии с принципом устойчивого развития осуществляет меры по улучшению, восстановлению и



охране окружающей среды, сохранению экологического равновесия. В республике принимаются целенаправленные меры по охране экологической системы Приаралья.

Общенациональный проект по озеленению территории, реализуемый по инициативе Президента страны, стал одной из практических

мер, направленных на сохранение экологического баланса. Проект претворяется в жизнь в целях охраны окружающей среды, улучшения экологической обстановки в городах и районах. Намечено ежегодно производить посадку 200 миллионов саженцев деревьев.

В числе заинтересованных ведомств свою лепту в охрану природы

вносят и органы внутренних дел. МВД совместно с Министерством экологии, охраны окружающей среды и изменения климата, Национальной гвардией создали систему Экологического патруля. 270 сотрудников осуществляют деятельность на основе «дорожной карты», разработанной исходя из актуальных задач природоохранного характера.

За девять месяцев текущего года установлено 26 219 случаев правонарушений в данной сфере, по которым наложены штрафы в размере свыше 9,8 миллиарда сумов.

В ходе рейдов выявлены факты незаконной вырубki 705 деревьев, по которым приняты жесткие меры. В целом, за минувший период возбуждены десять уголовных дел.

Сухроб ШАМАНСУРОВ,
подполковник.



SHARAFGA MUNOSIBLAR



Xorazm viloyati.



Jizzax viloyati.

Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan joylarda tantanali bayram tadbirlari o'tkazildi. Davlat va jamoat tashkilotlari, mahalliy hokimlik va huquq-tartibot idoralari rahbarlari, ichki ishlar organlari xodimlari, faxriylar va xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan fidoyi o'g'lonlarning oila a'zolari, jamoatchilik vakillari qatnashgan tadbirlarda tinch va osuda hayotimiz qo'riqchilari, huquq va erkinliklarimizning ishonchli himoyachilari kasb bayrami bilan samimiy qutlandi. Samarali xizmatlari uchun taqdirlangan xodimlarga vazirlikning ko'krak nishonlari, pul mukofotlari qimmatbaho sovg'alar tantanali ravishda topshirildi. To'kin dasturxon atrofida davom etgan bayram tadbirlarida namoyish etilgan konsert dasturlari ishtirokchilarga yanada ko'tarinki kayfiyat ulashdi.



Farg'ona viloyati.



Andijon viloyati.



Surxondaryo viloyati.



ХАВФСИЗ ТУРИЗМ

САЙЁҲЛАРНИ ЧОРЛАЁТГАН БУХОРО

Жорий йилнинг ўтган ойлари мобайнида Бухоро вилоятига ташриф буюрган сайёҳлар сони 2 миллион 899 минг нафардан ошди. Шундан 187 мингдан ортиғи чет эл фуқаролари бўлса, қолгани маҳаллий сайёҳлардир. Ўтган йилнинг мос даврига нисбатан уларнинг сони бир ярим барабар кўпайишига эришилди. Шунингдек, вилоятга шу йилнинг ўтган даврида 33 та хорижий давлатдан ҳамда 8 та халқаро ташкилотдан делегациялар ташриф буюрди. Делегация аъзоларининг вилоятдаги ташрифи чоғида уларнинг хавфсизлиги тўлиқ таъминланди.



– Бошқармамизда хизмат олиб бораётган ходимларнинг ҳар бири камида уч-тўрт тилни билиш билан бир қаторда, биринчи тиббий ёрдам кўрсатишнинг ҳам уддасидан чиқишади, – дейди вилоят ИИБ ХТТБ ЖХБ ЖТСГ катта инспектори, катта лейтенант Махлиё Рашидова.

Бошқарма ходимлари жиноятларнинг

олдини олиш ва содир этилганларини фош қилишда ҳам фидойилик намуналарини кўрсатмоқда. Жумладан, 2023 йилнинг шу кунига қадар бошқарма ходимлари томонидан 13 нафар қидирувдаги шахс ушланди, битта жиноят фош этилди. Шунингдек, ноқонуний фаолият билан шуғулланиб келаётган 2 та меҳмонхона ва «Е-mehton» электрон

базасига киритмаслик билан боғлиқ 9 та ҳолат аниқланди ҳамда уларга нисбатан маъмурий чоралар кўрилди.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

Dunyo yaralibdiki, insoniyatga turli xavflar, jumladan, tabiatning vayronkor injiqliklari tahdid soladi. Ommaviy axborot vositalariga nazar tashlasak, deyarli har kuni dunyoning qay bir burchagida qandaydir favqulodda vaziyat yuzaga kelayotganiga guvoh bo'lamiz.

Yurtimizda ham bir qancha favqulodda vaziyatlar yuz berib, xalqimiz boshidan sinovli kunlar o'tgan. Misol tariqasida, 1902-yilda Andijon shahrida, 1966-yilda Toshkent shahrida va 1984-yilda Gazlida yuz bergan zilzilalar, shuningdek, o'tgan asrning 90-yillari boshidagi Toshkent va Samarqand viloyatlarida odamlarning qurbon bo'lishi bilan bog'liq yirik ko'chki hodisalarini keltirib o'tish mumkin.

Favqulodda vaziyat deganda, odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib

oldimizda ko'ndalang turadi. Albat, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish qoidalariga o'rgatishni, eng avvalo, oiladan boshlashimiz lozim. Bunday vaziyatlarning muvaffaqiyatli tugashiga odatda insonning qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan tayyorgarligi hisobiga erishish mumkin. Aholini favqulodda vaziyatda harakat qilishga doimiy va sifatli tayyorlash, albatta, jabrlanganlar va moddiy zararining kamayishiga olib keladi.

FAVQULODDA VAZIYATLAR VA AHOLI MUHOFAZASI

chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati, sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat tushuniladi.

Favqulodda vaziyatlar kelib chiqish tusiga ko'ra, tabiiy, texnogen va ekologik turlarga bo'linadi.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarning birinchisi geologik xavfli hodisalar – zilzila, ko'chki, tog' o'pirilishi. Ikkinchisi gidrometeorologik xavfli hodisalar – suv toshqinlari, sel, qor ko'chkilari, kuchli shamollar, yomg'irlar. Uchinchisi – epidemiologik, epizootik, epifitotik xavfli vaziyatlar – o'ta xavfli infeksiyalarning tarqalishi.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga transport, kimyoviy xavfli obyektlardagi, yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan obyektlardagi, energetika va kommunal tizimlardagi, ijtimoiy yo'nalishdagi obyektlardagi, gidrotexnik va radioaktiv hamda boshqa xavfli, ekologik jihatdan zararli bo'lgan moddalarning ishlatilishi yoki saqlanishi bilan bog'liq bo'lgan halokatlar kiradi.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga quruqlik (tuproq, yer osti) atmosfera va gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar kiradi.

Yer yuzida bunday favqulodda vaziyatlar sodir bo'lib turarkan, undan inson hayoti xavf ostida qolayotgan ekan, tayyorgarlik ko'rish, aynan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish eng dolzarb masala sifatida

harakatlanishga tayyorlash tizimini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlarini keltirish mumkin.

Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Ya'ni, davlat boshqaruvi va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar rahbarlari, ishchi-xizmatchilarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bartaraf etish va fuqaro muhofazasi bo'yicha bilimlarini izchil oshirib borish nazarda tutilgan. Shuningdek, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash, ishlab chiqarish va xiz-

di. Ayrim hollarda bunday toshqinlar tabiiy ofatlarga aylanib ketadi. Bunday suv toshqinlari ko'plab odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi, muhim xo'jalik obyektlarini muhofaza qilish uchun maxsus tadbirlarni o'tkazish lozim bo'ladi.

Misol tariqasida aytadigan bo'lsak. 2020-yilda Sardobadagi suv ombori to'g'onining 6-piket devoridan suv sizib chiqib, suv oqimi tobora kuchayib toshqin yuzaga kelgan.

Tog'larning tik yonbag'irlaridan qor massasining pastlik tomon ag'darilib yoki sirpanib tushishiga **TOG' KO'CHKISI** deyiladi. Baland tog'larning ustiga ko'p qor yog'ib, uning

qalinligi ortadi va o'z og'irlik kuchi ta'sirida zichlashib, qayta kristallanib, yonbag'irlikka, pastlikka qarab osilib turadi va natijada uning qalinligi oshgan sari turg'unligi susayib boradi.

KUCHLI SHAMOL VA TO'FON insonlar hayotiga va iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Kuchli shamolning paydo bo'lishi, ya'ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida havo oqimi juda katta tezlikda harakatlanib, ba'zi joylarda u aylanma harakatga kelib qoladi. Bunday ofat oqibatida odamlarning halok bo'lishi, inshootlarning buzilishi, ekinzorlarning payhon etilishi kuzatiladi. Shuningdek, kuchli shamol esganda simyog'ochlar, daraxtlar ag'anaydi, uylarning tomlari buzilishi natijasida odamlar turli darajada jarohat oladi.

YER KO'CHKISI ham aholiga jiddiy zarar keltiradi. Xususan, 1991-yilda Toshkent viloyati Angren shahri yaqinidagi Jigariston qishlog'ida tabiiy-texnogen ofat natijasida aholining bir qismini ko'chki bosib qoladi. Butun boshli oilalar yer ostida qoladi.

Iqlim ko'rsatkichlarining tobora yomonlashib borayotganini insoniyat yerdagi resurslardan shafqatsizlarcha foydalanishni davom ettirayotgani bilan bog'lash mumkin. Ko'pchilik davlatlar tomonidan bu jarayon xavfsizlikka qarshi eng katta tahdid sifatida ko'rilmog'da. Dunyo bo'ylab sodir bo'lgan ayanchli hodisalar ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqishga yetarli darajada kuchli turtki berishi kerak. Yo'qsa, keyinchalik juda kech bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rni shuni aytish mumkin, bugungi kunda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlashda internet, xususan, ijtimoiy tarmoq va bloglardan foydalanish aholini bu borada o'z vaqtida xabardor qilishning keng tarqalgan va eng samarali chora-tadbirlaridan biri hisoblanadi. Bundan samarali foydalanish umume'tirof etilgan afzalliklarga egadir.

Sarvar SOBIROV tayyorladi.



Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, favqulodda vaziyatlar sharoitida qurbon bo'lganlarning 40 foizi tayyorgarlikdan o'tmaganliklari, to'g'ri harakat qilishni bilmaganliklari oqibatida hayotdan ko'z yumishar ekan. Shunday ekan, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash sohasidagi muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini topishga e'tibor qaratmoq kerak.

Mamlakatimizda ham bu borada bir qator me'yoriy hujjatlar imzolangan bo'lib, shu asosda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi, «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi hamda «Aholini zilzilada

mat ko'rsatish sohasida band bo'lmaganlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini va usullariga o'rgatish ham shular jumlasiga kiradi.

Eng vayronkor tabiiy ofatlardan biri **ZILZILA**dir. Yer qimirlashi ro'y berganida, yerning yuza qismi uncha uzoq bo'lmagan vaqt davomida tebranib turadi. Yer silkinish davri – silkinish yer qatlamining yuzasida va yaqin masofada bo'lsa, bir necha soniya, chuqurroq va olisda bo'lsa, 2–3 daqiqagacha davom etishi mumkin. Bu tebranishlar insonga noqulaylik tug'dirib, qo'rquvga tushiradi. Lekin yer silkinishining to'xtashini kutishdan boshqa chora yo'q. Bunday paytda sarosimaga tushmaslik, osoyishtalik va xotirjamlikni saqlash juda muhim.

Tabiiy ofatlarning yana bir dahshatlisi **SUV TOSHQINLARI**dir. Daryolarda iqlim omillari ta'siri, xususan, qorlarning erishi va jala bilan bog'liq mavsumiy suv ko'payishlari ro'y berib tura-

Отголоски праздника

По случаю Дня сотрудников органов внутренних дел на местах состоялись праздничные мероприятия. Прозвучали слова благодарности в адрес людей мужественной и ответственной профессии. Выступавшие подчеркивали, что стражи правопорядка являются надежным гарантом общественной безопасности, вносят достойный вклад в укрепление мира и спокойствия в стране. Отличившимся сотрудникам вручены нагрудные знаки, почетные грамоты и памятные подарки. В рамках торжеств были представлены концертные программы с участием мастеров искусств.



Бухарская область



Республика Каракалпакстан



Самаркандская область



Сырдарьинская область



Навоийская область



YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI

TENGDOSHLARIGA O‘RNAK

IIV Navoiy akademik litseyi ikkinchi bosqich o‘quvchilari – Ichki ishlar vaziri stipendiyatlari Parizoda Ramazonova, Iqbol Mamayusupovalar ingliz tilida ravon so‘zlasha oladi. Hatto shu tilda badiiy, ilmiy kitoblarni mutolaa qilishadi.

– Ayni paytda Jeym Klerning «Atom odatlari» kitobini o‘qiyapman. Unda yaxshi odatlarni egallash, yomonlardan xalos bo‘lish haqida hikoya qilinadi. Asarda inson psixologiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar aks etgan. Bu esa men uchun juda muhim. Chunki kelajakda ichki ishlar organlari tizimida tezkor qidiruv sohasi mutaxassisi bo‘lmoqchiman. Hozirdan fuqarolar bilan muloqotga kirishish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash borasidagi, qolaversa huquqiy bilimlarni egallashga harakat qilyapman. Bunda ustozlarimiz Feruza Adizova, Nasiba Xalilova hamda Vohidjon Xo‘janov menga

yaqindan yordam beryaptilar, – deydi Iqbol Mamayusupova.

– Oilada to‘rt qizimiz. Men ularning to‘ng‘ichiman, – deya suhbatimizga qo‘shiladi Parizoda Ramazonova. – Fe‘l-atvorimda qat‘iylik bo‘lgani uchunmi, dadam meni «O‘g‘il bola qizim» deb erkalaydilar. Sevgan mashg‘ulotim ingliz, rus tillarini mukammal o‘rganish. Yana voleybol o‘ynashni yaxshi ko‘raman. Hozirda Deyl Karnegining «Do‘stlar orttirish va odamlarga ta‘sir o‘tkazish» kitobini o‘qiyapman. Litseyimizda tashkil etiladigan turli seminarlarda o‘zimning ma‘ruzalarim bilan ishtirok etaman.

– Bu qizlarimiz barcha

fanlarni a‘lo baholarga o‘zlashtirishyapti. Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan loyihalarda faol ishtirok etishyapti. Jumladan, «Oltin qanot» volontyorlar akademiyasi a‘zolari sifatida darsdan bo‘sh vaqtda nogiron bolalarga o‘qishda, yolg‘iz qariyalarimizga uy yumushlarida ko‘maklashadilar, do‘stlarini ham shunday savobli ishga jalb qilishmoqda, – deydi akademik litseyi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Mahmudjon Annaqulov.

Parizoda Ramazonova va Iqbol Mamayusupova ingliz tili fani bo‘yicha V1 hamda V2 darajali milliy sertifikatlarni qo‘lga kiritib, akademik litseyning nufuzi oshishiga hissa qo‘shdilar.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati



QOROVUL QO‘SHINLARIDA

SHAXTI BALAND KOMANDIR

Jaloliddin Chegara qo‘shinlarida yigitlik burchini o‘tash asnosida professional harbiy xizmatchi bo‘lishga ahd qildi. Shu boisdan muddatli harbiy xizmatdan so‘ng Chegara qo‘shinlarida shartnoma asosida xizmatni davom ettirdi.

Endi uning ko‘nglida ofitser bo‘lish niyati tug‘ildi. Oliy o‘quv yurtiga kirish uchun tavsiyanomani qo‘lga kiritgani, qolaversa, puxta tayyorgarlik ko‘rgani yordam berib, Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurtiga o‘qishga kirdi. Yosh ofitser sifatidagi faoliyatini esa IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli Qarshi shahridagi 7533-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruv-

chi safarbarlik vzvodi guruh komandiri lavozimida boshladi.

Lavhamiz qahramoni o‘quv mashg‘ulotlarida, amaliy mashqlar chog‘ida o‘zining bilim va ko‘nikmalarini boyitdi, sport bilan shug‘ullanishni ham kanda qilmadi. 2020–2021-yillarda Qorovul qo‘shinlari miqyosida o‘tkazilgan «Eng ilg‘or kasb mutaxassisi» ko‘rik-tanlovining «Eng ilg‘or guruh komandi-



ri» nominatsiyasida sovrinli o‘rinlarni egalladi.

Yurtimizda harbiy xizmatchilarni har tomonlama professional etib tarbiyalash, ularda jangovar ruh, matonat va shijoatini oshirish maqsadida «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlari o‘tkazib kelinmoqda. Katta leytenant Jaloliddin Omonov

2022-yili Qurolli Kuchlar tizimida tashkil etilgan ushbu musobaqada ham zafar quchib, «Dovyurak jangchi» ko‘krak nishoni sohibiga aylandi.

– Bu muvaffaqiyatlar zahirida, albatta, ustoz va murabbiylarimning ham mehnati yotibdi, – deydi J. Omonov. – Yaqinda «Alvon beret» sohibi bo‘lganim zimmamga yanada ulkan mas‘uliyat yukladi.

Katta leytenant Jaloliddin

Omonov qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarga kasb sirlarini mukammal o‘rgatib kelayotir. Bundan tashqari, harbiy qismda bo‘lib o‘tadigan turli tadbir va uchrashuvlarda doimo faol.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Suratlarda: 1) Jaloliddin Omonov «Alvon beret» bilan taqdirlanmoqda. 2) J. Omonov harbiy xizmatchilar bilan mashg‘ulot jarayonida.



XAVFSIZ HARAKAT

IJTIMOIY LOYIHANING AHAMIYATI KATTA

Poytaxtimizdagi «Intercontinental» mehmonxonasida Toshkent shahar IIBB YHXB hamda GROSS sug'urta kompaniyasi hamkorligida «Xavfsiz harakat» ijtimoiy loyihasini amalga oshirishga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda YHXB hamda GROSS sug'urta kompaniyasi rahbariyati, mas'ul xodimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda sug'urta kompaniyasi vakillari tomonidan «Xavfsiz harakat» ijtimoiy loyihasining taqdimoti o'tkazildi.

Ijtimoiy loyihani amalga oshirishdan asosiy maqsad haydovchilarning yo'llarda harakatlanish madaniyatini yuksaltirish, ularning yo'l harakati qoidalariga rioya qilishlarini targ'ib etish, yo'llarda baxtsiz hodisalarni kamaytirishdan iborat.

Loyiha doirasida respublika miqyosida LED ekranlardan foydalanilgan holda, yo'l harakati ishtirokchilariga asosiy xavfsizlik qoidalarini eslatib turuvchi keng qamrovli axborot kampaniyasi boshlangan edi. Shuningdek, «Uzum market» kompaniyasi bilan hamkorlikda piyodalar uchun sumka (shopper) o'ylab topildi va ishlab chiqarildi. Shopperda piyodalar o'tish belgisi va



o'zida yorug'likni aks ettiruvchi jihatlar mavjud bo'lib, bu piyodalarning yo'llarda, ayniqsa, tungi vaqtlarda yanada aniqroq ko'rinib turishiga yordam beradi.

Qoidalarga amal qiladigan haydovchilarni rag'batlantirish loyihasining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Ya'ni, yil davomida yo'l harakati qoidalarini buzmagani yoki baxtsiz hodisa sodir etmagan haydovchilar tashkilotchilardan minnatdorlik maktublarini oladi. Shuningdek alo-

hida shartlar asosida ixtiyoriy avtomashina sug'urta polisini ahamiyatli darajadagi chegirma bilan qo'lga kiritishlari mumkin bo'ladi.

Tadbir davomida IIBB YHXB boshlig'i, polkovnik Rafiqjon Jalilov hamda GROSS sug'urta kompaniyasi AJ boshqaruv raisi Otabek Nazarov tomonidan memorandum imzolandi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



ORAMIZDAGI ODAMLAR

EGIZAKLAR OTASI

Qarshi shahar IIOFMB 4-sonli IIB huquqbu-zarliklar profilaktikasi guruhi «Ravoq» mahallasi profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi Murod Toshnazarov o'z vazifasiga sidqidildan yondashdigan fidoyilardan biri.

Koson tumani «Paxtazor» mahallasida yashovchi Saidqul ota va Nasiba aya oilasida tug'ilgan Murodda maktabda o'qib yurgan kezaridayoq ichki ishlar organlari xizmatiga qiziqish uyg'ongan edi. Maktabni a'lo baholarga tugatib, 2014-yilda Qarshi davlat universitetiga hujjat topshirgan Murod talabalik baxtiga muyassar bo'ldi. 2018-yilda oliygohning tarix fakultetini tamomlab, tumandagi 6-sonli maktabda yoshlarga dars berdi.

Tog'asi, Koson tumani IIB HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik G'olib Shernazarovning tavsiyasi bilan qahramonimiz bir yildan beri egallab turgan lavozimda xizmat qilmoqda. Ustozi, Qarshi sha-



har IIOFMB 4-sonli IIB HPG profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Mirkomil Murodovdan xizmatning o'ziga ma'lum bo'lmagan jihatlarini o'rganyapti.

– Murod kirishimlili, xushmuomalaligi bilan fuqarolar ishonchini qozongan, – deydi 4-sonli

IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Anvar Qilichev. – U tirishqoq, mehnatsevar inson, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashib, berilgan topshiriqlarni bekor-ko'st bajaradi.

«Ravoq» mahallasi hududida «Yerqo'rg'on» oziq-ovqat va dehqon

bozorlari, «Farhod» savdo kompleksi, «Samarqand» shohbekati joylashgan. Shuning uchun Murod Toshnazarovni goh bozorda, goh mahalla idorasida, goh «102» maskanida uchratasiz.

Darvoqe, Murod Toshnazarovning oilasida joriy yilning 7-sentabr kuni unutilmas voqea ro'y berdi. Shu kuni uning turmush o'rtog'i Toshkent shahridagi Respublika perinatal markazida 4 nafar o'g'il egizaklarni dunyoga keltirdi.

– Bolalarga Mustafo, Muhammadali, Miromon va Yusuf ismlarini qo'ydik. Hozir barchasi sog'-salomat ulg'aymoqda, – deydi chaqaloqlarning onasi Maftuna Tosheva. – Mahalla patronaj hamshirasi Gulruh Rahimova egizaklarimning holidan tez-tez xabar olib turibdi. Otasi ularga juda mehribon. Endi turmush o'rtog'imning ichki ishlar organi xodimi bo'lish orzusi amalga oshsa, mendan baxtli oila bekasi bo'lmaydi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



SOHAVIY XIZMATLARDA

CHORRAHADA

Sirdaryo tumani IIBdagi ertalabki yo'riqnoma biroz kechikish bilan boshlandi. Negadir tuman IIB boshlig'i kechikardi. Vaqtdan foydalanib, xodimlarga tarbiyaviy yo'riqnoma berildi. O'n besh daqiqa o'tgach, tuman IIB YHXB boshlig'i, mayor Shokir Aliboyevning telefoni jiringladi. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i ekan. Yo'lda avtohalokat sodir bo'lgani, buning ustiga trassa o'rtasidagi svetofor ishlamayotgani sababli tartibsizlik paydo bo'lganini qayd etdi. Zudlik bilan «Toshkent – Termiz» yo'lining o'sha hududiga yetib borishni buyurdi.

Mayor chorrahaga yetib kelganida vaziyat chindan ham jiddiy edi. Davlat raqamidan Navoiy viloyatidan ekanini bilish mumkin bo'lgan «Nexia» avtomobili «Gaz-24» avtofurgoniga kelib urilgan. Ustiga shifer ortilgan eski mashina yo'lining o'rtarog'idan anchagina surib borilgan. Ko'rinib turibdiki, «Gaz-24» yo'lini kesib o'tayotgan bo'lgan, svetofor ishlamagan. Shu sabab «Nexia» katta tezlikda kelib urilgan. Aslida «Toshkent – Termiz» avtomagistraliga chiqib kelayotgan avtofurgon yo'l berishi kerak edi.

Haydovchi «ulguraman» deb o'ylagan, shekilli. «Tez yordam» allaqachon yetib kelgan, «Nexia» haydovchisi og'ir jarohat olgan. Uni olib ketishga urinayotgan «Tez yordam» haydovchisi tirbandlikdan chiqib ketolmay xunob. Erta sahardan ishga kechikmay, deb intilayotgan mahalliy haydovchilar zo'r berib katta trassani kesib o'tishga urin-ar, uzoq yo'ldan kelayotgan boshqa yuzlab mashinalar to'xtashga majbur edi.

Mayor tezda ishga kirishdi. Qo'lidagi ishora beruvchi tayog'i bilan chorrahani bo'shatishga kirishdi. Pikapga aylantirilgan «Gaz-24» avtomashinasi naq chorrahaning o'rtasida qiyshayib qolgan. Ortidan yetib kelgan yana bir YHXB inspektori va tuman IIB ekspert-kriminalistlari voqea joyi, avtomobil-larni o'rganishga kirishdi. Bu orada, Shokirjon «Tez yordam»ni chiqarib yuborishga kirishdi.

Lekin chorrahadagi tirbandlikni yo'qotish oson kechmadi. Inspektorning sa'y-harakati bilan avtomagistraldagi mashinalar harakatlana boshladi. Bu orada hamkasblari avtohalokat yuzasidan bayonnomalarni rasmiylashtirib bo'lishdi. Lekin svetofor hamon ishlamayapti. Tuman elektr



Sirdaryo tumanida tug'ilgan Shokir Aliboyev 30 yildan buyon Sirdaryo viloyati IIB YHXB tizimida xizmat qiladi. Uning yetuk kadr bo'lib yetishishida ustozlari, polkovniklar Jo'raqul Ilyosov va Abdutolib Nazarovning hissasi katta. Ayni paytda uning o'zi ham Sirdaryo tumani IIB YHXB inspektori, serjant Sardor Qobulov, viloyat IIB YHXB inspektori, serjant Bobir Otaqulov kabi o'nlab shogirdlarning ustoz.

tarmoqlari korxonasiga qo'ng'iroq qilindi. Mutaxassislar yetib kelish-gach, svetofor ishlay boshladi. Yo'lda harakat sekin-asta iziga tushdi.

Tuman IIB YHXB boshlig'i, mayor Shokir Aliboyev xotirjam holda ortga qaytdi. Uning bugunga belgilangan re-jasi o'ta tig'iz. Bir nechta umumta'lim

maktablarida yoshlarga yo'l harakati qoidalarini targ'ib qilishi, bir qancha mahallalardagi yo'l harakatini kuzatishi zarur...

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

O'JARLIK OQIBATI

Yo'l harakati xavfsizligi xodimlari issiq-sovuq, kecha-kunduz demasdan, yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash choralari ko'rishadi. Ba'zan nohaq bo'lsa-da, vaziyatdan quruq chiqish uchun o'zini har ko'yga soladigan haydovchilar bilan muloqot qilishlariga to'g'ri keladi.



Ayrim hollarda yuzaga kelgan qaltis vaziyatdan «silliq» chiqib ketish ilinjida bo'lganlar soha vakillarini jinoyatga qo'l urushga undaydilar. Chunonchi, qashqadaryolik N.U. Jizzax viloyati IIB JXX YHXB yo'l-patrul xizmati batalyoni 2-safarbar guruhi yo'l-patrul xizmati katta inspektori, katta serjant Jasur To'rayevga

pora taklif qildi. Bunga uni qonunga zid xatti-harakati undadi. Qisqasi, hammasi Paxtakor tumani «Buyuk ipak yo'li» mahallasi hududidan o'tuvchi Toshkent – Termiz yo'lida xizmat olib borayotgan katta inspektorning og'ir yuk ortilganligi yaqqol sezilib turgan «Cobalt»ni to'xtatishidan boshlandi.

Avtoullovni ko'zdan kechirish jarayonida katta serjant Jasur To'rayev avtoullov saloni va bagaji chigitlanmagan paxta bilan to'ldirilganiga guvoh bo'ldi. E'tiborlisi, na haydovchilik guvohnomasini, na paxta xomashyosiga oid hujjatlar-ni taqdim qila olmadi. Tabiiyki, xodim tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtirishga kirishdi.

Ana shunda qoidabuzar haydovchi o'ziga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirmasligi uchun xodimga pul tiqishtira boshladi. O'z navbatida, qonun himoyachisi N.U.ga bunday xatti-harakat jinoyat ekanligini tushuntirdi. Ammo o'jar haydovchi bir dasta pul-ni YPX xodimining xizmat avtomashinasi saloniga qo'ydi...

IIV Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi Jizzax viloyati bo'yicha bo'limi hamda prokuratura xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida haydovchi YPX xodimga 1 million 850 ming so'mni pora tariqasida tashlab qo'yganligini tan oldi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

KECHA



Xorazm viloyati Ichki ishlar xalq komissariati okrug boshqarmasi binosi. 1936-yil.

VA



BUGUN

Xorazm viloyati IIB binosi.

HAMKASBLARIMIZ HAQIDA

TO'G'RI YURDIM – YETDIM MURODGA

Termiz shahridagi mahallalardan birida patrullik xizmati olib borayotgan katta serjant Chorshanbi To'rayev ro'parasidan kelayotgan mashinaga ko'zi tushdi. Avtotransport vositasining harakatlanishi unda shubha uyg'otdi. Mashinani to'xtatgach, haydovchi hali voyaga yetmagan o'smir ekani, u qo'shnisining avtomobilini olib qochib ketayotgani ma'lum bo'ldi. Katta serjantning hushyorligi ro'y berishi mumkin bo'lgan yana bir ko'ngilsiz holatning oldini oldi.

Viloyat IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batal-yoni tumanlararo patrul-post xizmati otryadi guruh komandiri, katta serjant Chorshanbi To'rayev, 18 yildirki, ichki ishlar organlari tizimida ana shunday hushyorlik bilan xizmat olib bormoqda. Dastlab 8-tergov hibsonasida katta nazoratchilikdan boshlangan faoliyati bugungi kunda jamoat xavfsizligini saqlashdek muhim vazifada davom etmoqda.

Har qanday sohada ham to'g'ri yo'l ko'rsatadigan ustoz bo'lmasa, inson ko'p xatolarga yo'l qo'yadi. Qahra-

monimiz ilk faoliyatini boshlagan yillarida kichik serjant Jumanazar Norqulovning murabbiy sifatida ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari keyingi faoliyatida juda asqatdi.

– U kishining doim to'g'ri yurib, to'g'ri tursang, fuqarolar bilan xushmuomala bo'lsang, hayotda adashmaysan, degan nasihati hali-hanuz qulog'im ostida jaranglaydi, – deydi katta serjant Chorshanbi To'rayev. – Doim xato qilsam, qattiq tanbeh berardi. Seni tanqid qilgan odam aslida do'st bo'ladi, deya uqtirardi. Ichki ishlar organi xodimi sifati-



da el oldida yurish, hurmat topish oson emas. Bunga faqat halollik, to'g'rilik bilan erishish mumkinligini tushunganman. Shukrki, bu o'g'itlar meni ko'plab yutuqlarga erishishimga sabab bo'ldi.

Katta serjant Chorshanbi To'rayev xizmat davrida qidiruvdagi shaxslarni ushlab, o'g'irlik jinoyatlarini ochishda faollik ko'rsatgan.

Ayni paytda qahramonimiz Jarqo'rg'on tumanidagi aholi gavjum joylar, kriminogen vaziyat og'ir hududlarda navbatchilik olib boradigan xodimlarning yurish-turishi, xizmat olib borish jarayonini nazorat qilish bilan birga, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadi. Ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qiladi.

– Inson bu hayotda biror ishga qo'l urmoqchi bo'lsa,

avvalo, o'ziga ishonishi kerak. Ishonch maqsadlarning amalga oshishida muhim sanaladi, – deydi u. – Shu paytgacha men doim shu aqidaga amal qilgan holda, nimaiki orzu qilgan bo'lsam, erishib kelyapman. Bu yil biz, xodimlarga yaratilgan imkoniyat sababli IIV Akademiyasiga o'qishga kirdim. Nihoyat, oliy ma'lumotli ofitser bo'lish orzuyim ushaladigan bo'ldi.

Chorshanbi To'rayevning xonadonida ulg'ayayotgan 2 nafar o'g'ilning ota kasbini egallashga ishtiyoqi baland. O'z navbatida, qahramonimiz ham ularning bu xohishini bajonidil qo'llab-quvvatlaydi. Shu sabab o'zi o'rnak bo'lgani holda, farzandlariga ham mard, hamisha odamlarga ko'makka shay insonlar bo'lib yetishishlarini uqtiradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA

ERTANGI KUN UMIDIDA

Bu olamda turfa taqdirli insonlarni uchratish mumkin. Kimdir hayot qiyinchiliklarini yengib o'tishda irodasizlik qilib, yana kimdir bila turib jinoyat sodir etadi. Pul topishning oson yo'lini ixtiyor etgan, so'ng pushaymon bo'lganlari ham topiladi. Jazo esa so'nggi chora bo'lib, kishini tarbiyalaydi, xatodan tegishli xulosa chiqarishga undaydi.



IIV huzuridagi JIED Ikkinchi min-taqaviy hududi 6-son jazoni ijro etish muassasasida bo'lganimizda ana shu fikrlar xayolimizdan o'tdi.

Muassasaning maxsus hisob bo'limi boshlig'i, mayor Yunusjon Oripov mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishiga hissasini qo'shib kelmoqda.

– Mamlakatimizda insonparvarlik va kechirimlilik siyosatining amaliyotga tatbiq etilgani zamirida ezgu maqsadlar mujassam. Negaki, barcha insonlarning baxtli yashashga haqqi bor. Xatoga yo'l qo'yganni safdan chiqarish, jamiyatdan ajratib qo'yish kerak emas. Ana shu qarashlarni odamlar ongiga singdirish,

atrofimizdagi jazo muddatini o'tab qaytgan shaxslarga ijtimoiy hayotga moslashuvda ko'maklashish har birimizning insoniy burchimizdir, – deydi mayor Yunusjon Oripov.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida muassasada jazo muddatini o'tayotganlarga nisbatan insonparvarlik dalolatnomasini qo'llash masalasi bo'yicha 1292 nafar mahkumning hujjatlari tegishli tartibda rasmiylashtirilib, ko'rib chiqish uchun jinoyat ishlari bo'yicha Pop tuman sudiga yuborildi. Sud tomonidan 1228 ta ariza qanoatlan-tirilgan. Jumladan, 21 nafar mahkum jazoni o'tash joyidan ozod etilgan, 3 nafar mahkumning jazo muddati qisqartirildi. Qolganlarining arizasi

o'rganib chiqilib, jazo chorasi tegishli tartibda yengilroq'iga almashtirilib, manzil koloniyalariga o'tkazilgan.

Bilib-bilmay jinoyat sodir etib, so'ng xatosini anglab, tuzalish yo'liga kirgan yurtdoshlarimiz kechirimlilik ortidan hayotda o'z o'rnini topib ketishyapti. Shuning uchun ham jazo muddatini o'tayotgan fuqarolar alamzada bo'lmaydilar. Ular qalbida ertangi kunga umid bor, o'zini yaxshi tutsa, jinoiy qilmishidan pushaymon bo'lsa, hayotlari izga tushishiga ishonadilar.

– To'g'ri, oilasidan ayri yashash mahkumlar uchun oson emas. Yaqinlari mehrini his qilmay yashashning o'ziyoq inson qaddini bukib qo'yishi mumkin, – deya so'zida davom etadi Yunusjon o'ychan tortib. – Qolaversa, ular ozodlikka chiqqanidan keyin hayotda o'z o'rnilarini topishlari uchun tayinli kasb-hunarga ega bo'lishlari, bo'yinlari mehnatga yor berishi kerak. Shuning uchun muassasada mah-

kumlarga kasb-hunar o'rgatiladi, ular yog'ochni qayta ishlash, tikuvchilik, chilangarlik, gilam to'qish, duradgorlik kabi yo'nalishlarda ishlab, tajriba orttiradilar.

Muassasada 224 nafar mahkumga Namangan viloyati IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda ID-karta rasmiylashtirib berildi.

Ushbu muhim ishlarni bajarish Yunusjondan katta mas'uliyat talab etadi. Bir paytlar jinoyat sodir etgan shaxsning sog'lom hayot yo'liga qaytishi g'oyat qiyin jarayon. Ammo turmush so'qmoqlarida adashgan kishilarga to'g'ri yo'l topishiga ko'maklashish ham oson emas. Mayor Yunusjon Oripovga ana shunday mashaqqatli ishida muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

Suvda yoki quruqlikda bajarayotgan amallarimizning qadriyatini boylikka intilish bilan emas, insonga hurmat ko'rsatish bilan baholanishi kerak.

Jak Iv Kusto.



 Урок духовности и просвещения

ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ СИТУАЦИИ И ЗАЩИТА НАСЕЛЕНИЯ

Чрезвычайные ситуации природного и техногенного характера – ситуации, сложившиеся в результате аварии, опасного природного явления, стихийного или иного бедствия, которые могут повлечь или повлекли за собой человеческие жертвы, причинение вреда здоровью людей либо окружающей природной среде.

В Узбекистане отношения в области защиты от такого рода ситуаций регулируются Законом «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера» от 17 августа 2022 г. При этом под защитой от ЧС понимается комплекс мероприятий, система средств и способов по их предупреждению и ликвидации. В системе мер особое внимание уделяется предупреждению ЧС, включающей мероприятия, проводимые заблаговременно и направленные на максимально возможное уменьшение риска возникновения ЧС, а в случае их возникновения – на спасение жизни и сохранение здоровья людей, снижение размеров вреда природе и материальных потерь.

Стихийные бедствия (землетрясения, сели, оползни, наводнения и другие опасные природные явления), природные пожары, эпидемии, эпизоотии, эпифитотии могут привести к чрезвычайным ситуациям природного характера.

Аварии в промышленности, на транспорте, на коммуникационных системах, обеспечивающих жизнедеятельность людей, пожары (взрывы), аварии, связанные с распространением или угрозой распространения сильнодействующих ядовитых, химических, радиоактивных и опасных биологических веществ, внезапное обрушение сооружений относятся к чрезвычайным ситуациям техногенного характера.

Руководство защитой от ЧС осуществляется на всей территории страны. Премьер-министром Узбекистана, в министерствах, государственных комитетах, ведомствах и организациях – их руководителями, в Каракалпакстане, областях, городе Ташкенте, районах, городах – Председателем Совета Министров Республики Каракалпакстан и хокимами областей, города Ташкента, а также районов, городов.

Государственная система предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях Узбекистана объединяет органы управления, силы и средства министерств, госкомитетов, ведомств, Совета Мини-

стров Каракалпакстана, хокимиятов областей, Ташкента, а также районов, городов и организаций. Она состоит из территориальной, функциональной и информационно-управленческой подсистем, а также имеет республиканский, местный и объектовый уровни. В зависимости от масштаба и состояния прогнозируемой или возникшей ЧС на определенной территории устанавливаются режимы Государственной системы чрезвычайных ситуаций: повседневный; повышенной готовности; режим чрезвычайной ситуации.

Следует отметить, что мониторинг ЧС и их заблаговременное



прогнозирование осуществляется органами государственного управления и организациями, входящими в Единую систему мониторинга, обмена информацией и прогнозирования ЧС. Задачи мониторинга – раннее выявление потенциальных источников, приводящих к ЧС, организация и осуществление системного наблюдения и контроля за ними; обеспечение постоянного и автоматизированного обмена информацией; заблаговременное прогнозирование вероятности развития, особенностей и масштабов опасных природных, техногенных и экологических процессов, приводящих к ЧС; разработка рекомендаций по предупреждению и ликвидации ЧС, а также уменьшению их последствий.



Органы государственного управления, исполнительной власти на местах и организации обязаны через СМИ, специальные технические средства своевременно и достоверно информировать население о состоянии защиты от ЧС, принимаемых мерах, прогнозируемых или возникших ЧС, способах защиты. Что касается состава сил

Сотрудники правоохранительных органов и силовых ведомств участвуют в ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера, пожаров, наводнений, разгула стихии и др. К примеру, совместными усилиями сотрудниками МЧС, МВД, Национальной гвардии, военнослужащими Министерства обороны были ликвидированы последствия прорыва дамбы Сардобинского водохранилища (1 мая 2020 г.), а также шквального ветра в Бухарской области (28 апреля 2020 г.), повредившего более 38 тыс. домов, свыше 800 социальных объектов, линии электропередачи. Президент Шавкат Мирзиёев особо отметил важную роль задействованного личного состава в спасении людей, их широкую вовлеченность в аварийно-восстановительные работы.

Сотрудничество Узбекистана с другими государствами и международными организациями в области защиты от ЧС и ликвидации их последствий осуществляется органами государственной власти и управления в соответствии с международными договорами и национальным законодательством. Так, представители Узбекистана принимали активное участие в ликвидации последствий стихийного бедствия – землетрясения, произошедшего 6 февраля 2023 года на юго-востоке Турции. Спасено более 30 человек, развернутый специалистами республики мобильный госпиталь оказал медицинскую помощь почти 2 тыс. людям. Аналогичных примеров можно привести немало, ибо в нынешних условиях партнерство стран, взаимная выручка и помощь – единственно возможное условие адекватного реагирования на возникающие угрозы, в том числе чрезвычайные ситуации.

Анна ВЛАСОВА,
майор.



QILNI QIRQ YORIB

EKSPERTNI ALDAB BO'LMAYDI



Payariq tumani ichki ishlar bo'limi Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, kapitan Obidjon Olamgirov dastxat ekspertizasi-ga ixtisoslashgan mutaxassislardan biri. U joriy yil boshidan buyon 50 dan ziyod ekspertiza o'tkazdi, qariyb 200 marta hodisa joyiga chiqdi.

U ochgan so'nggi firibgarlik jinoyatlaridan biri kredit olishga doir hujjatlarda imzolarni qalbakilashtirish bilan bog'liq. Ya'ni, Jizzax viloyatida yashovchi fuqaro birovning hujjatlari bilan kredit olib, o'z ehtiyojlari uchun ishlatib yurgan. O'z ustida ishlashdan erinmaydigan, shu bois ham tobora mehr qo'ygan kasbining ustasiga aylanib borayotgan qahramonimiz bu jinoyat izlarini tezda topadi.

– Yaxshi kriminalist uchun bitta oltin qoida bor, – deydi kapitan Obidjon Olamgirov. – Ya'ni, jinoyat sodir etib, iz qoldirmaslikning iloji yo'q, to'g'ri, ba'zida ularni aniqlash biroz qiyin kechadi. Izlarni qidirishga ob-havo sharoiti, jinoyatning ancha oldin sodir etilgani va boshqa bir qator omillar ta'sir qilishi mumkin.

Menga tanlagan sohamda o'zini o'zi rivojlantirish va mahoratni oshirish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlar mavjudligi yoqadi. Xizmat jarayonida u yoki bu turdagi ekspertizani to'liq o'zlashtirib olish qiyin. Chunki bu jarayonlar kutilmagan holatlar va vaziyatlarda ro'y beradi. Bu esa mutaxassisdan har doim o'rganishni, muntazam takomillashuvni talab qiladi. Ishonchim komilki, har bir inson, kasbidan qat'i nazar, o'z ishini imkon qadar sifatli bajarishga intiladi. Kriminalist ham bundan mustasno emas.

Ha, ekspert-kriminalistlarning ishi, qahramonimiz ta'kidlaganidek, har kuni qandaydir yangi jihatlariga duch kelishi bilan mashaqqatli, qiziqarli va hayajonli. Bir jihat shuki, «kalavaning uchini» topganlar sifatli bajarilgan ishdan keyingi natijani ko'rib, haqiqiy zavq va sevinchni his qiladi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

GIYOHVANDLIK –
ASR VABOSIKESKIN CHORALAR
KO'RILMOQDA

Bugungi kunda inson ongi va sog'lig'iga kuchli salbiy ta'sir etuvchi giyohvandlik vositalarining keng tarqalayotgani dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda. Shu bois mamlakatimizda ham narkotik va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi keskin choralar ko'rilyapti.

Xorazm viloyati ichki ishlar organlari xodimlari ham bu borada bir qator tezkor tadbirlarni amalga oshirishmoqda. Jumladan, joriy yilning 17-oktabr kuni o'tkazilgan maxsus tezkor tadbirda xivalik R.Qadamboy (ism-shariflari o'zgartirildi) o'z tomorqasida 3 tup kannabis giyohvandlik o'simligini ekib, parvarishlayotgani aniqlandi. Uning xonadoni xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida, 2 ta polietilen qopda quritilgan giyohvandlik vositasi sotish maqsadida saqlab qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Shu kuni o'z xonadonlarida turli giyohvandlik vositalarini sotish uchun saqlab qo'ygan boshqa kimsalarning ham g'ayriqonuniy qilmishlari fosh etildi. Jumladan, hazorasplik M.Akmal 10 gramm marixuana va 50 gramm ko'knori, gurlanlik S.Maqsud 20 gramm opiy va 10 gramm marixuana, urganchlik Y.Po'lat 30 gramm marixuana, T.Farhod 106 gramm opiy va 5 gramm marixuana, xivalik F.Davlat 605 gramm marixuana, K.Nazar esa 350 gramm marixuana giyohvandlik vositalarini qonunga zid ravishda saqlab kelayotgani aniqlandi.

Shuningdek, Qo'shko'pir tumani hududida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida M.To'hir bir dona gugurt qutisiga joylangan marixuana giyohvandlik vositasini tanishi V.Olimga 500 ming so'mga sotgan vaqtida qo'lga olindi. Tadbir davomida unga tegishli bo'lgan «Gentra» rusumli avtomashina ko'zdan kechirildi va avtoullov salonida sotish maqsadida saqlab qo'yilgan marixuana giyohvandlik vositasi borligi ayon bo'ldi...

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



MA'RIFAT BO'STONI

QAY BIRINI O'QITAY?



Bir kambag'al kishi donishmandning huzuriga kelib:

– Hazrat, mening bir o'g'lim va bir qizim bor. Ulardan har ikkisini o'qitishga qurbim yetmaydi, faqatgina bittasini o'qitishga imkonim bor, qaysi birini o'qitay? – deb so'rabdi.

Shunda donishmand qariya:

– Qizingni o'qit, chunki u kelajakda farzandlar tarbiya qiladi. Agar o'g'lingni o'qitsang, bir kishini o'qitgan bo'lasan, ammo qizingni o'qitsang, butun bir jamiyatni o'qitgan bo'lasan, – deb javob beribdi.

KOMILLIK SARI UCH QADAM

Bir olim yurt kezib, odamlarga nasihat va o'gitlar berib yurarkan. Kunlardan birida u bir qishloqqa borib qolibdi. Qishloq odamlari uni jon qulog'i bilan tinglab, o'zlarini qiziqtirgan savollar berishibdi. Ulardan biri so'rabdi:

– Komil inson qanday bo'ladi?

Olim biroz o'ylanib turib, javob beribdi:

– Buning uchun uch narsaga rioya qilish kerak. Birinchisi, senga kimdir yomonlik qilsa, yomonlik bilan javob qilmaysan. Bu ishing komillik sari qo'ygan ilk qadamingdir. Senga yomonlik qilgan kishiga yaxshilik bilan javob berish esa ikkinchi qadaming hisoblanadi. Ko'rgan yomonligingni unutib, ko'nglingdan chiqarib tashlay olsang, bu uchinchi qadaming bo'ladi.

OQIBAT YO'QOLMASIN



Bir kuni Boylik, Ilm va Oqibat uchrashib qolibdi.

Boylik aytibdi:

– Agar men yo'qolib qolsam, xazinalar orasidan izlang, o'sha yerda bo'laman.

Ilm:

– Men yo'qolib qolgudek bo'lsam, kitoblar ichida yashayotgan bo'laman.

Shunda bir chetda jimgina o'tirgan Oqibatdan so'rashibdi:

– Sen yo'qolsang, qayerdan topamiz?

– Meni aslo yo'qotib qo'ymanglar. Aks holda, hech qayerdan topolmaysizlar, – deya javob qilibdi u.

OILAVIY BAXT SIRI


Onam hamma vaqt mazali taomlar tayyorlardi. Faqat bir oqshom u kechki taomdan so'ng dasturxonga tagi kuygan shirinlikni qo'ydi. Men ishdan charchab kelgan otamning jahli chiqib, baqirishini kutdim. U esa lom-mim demadi va shirinlikni yeb qo'ydi, keyin esa bizdan kunimiz qanday o'tganini so'rab, shirin suhbat qurdi.

Birozdan so'ng dasturxonni yig'ishga unnagan onam otamdan tagiga olgan pishiriq uchun uzr so'radi. Otamning «Xavotir olma,

shirinlik menga juda yoqdi» degan javobini hech qachon unutmayman.

Uyquga yotish oldidan men undan nega bunday qilganini so'radim. Otam esa yelkamga qo'lini qo'yib, shunday dedi: «Bugun onangning ish kuni juda og'ir kechdi, qattiq charchadi. Shunga qaramay, uyga kelib bizga yegulik va shirinlik pishirdi. Bunday paytda keskin va qo'pol so'zlarim uning qalbini yaralashi mumkin edi. Hamma xato qiladi. Biz hamisha sevgan insonlarimizni qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Uzoq va baxtli oilaviy munosabatlarning siri ham shunda».

BUGUN – QOLGAN UMRINGNING ILK KUNI



■ Yaxshi inson o'z nutqida kamtar, biroq ezgu amallarida jur'atli bo'ladi.
■ Hayotda yiqilish fojia emas, aslida o'sha holda qolishni tanlash muvaffaqiyatsizlikdir.

■ O'tmishni o'zgartirish imkonsiz, ammo porloq kelajakni yaratish har kimning o'z qo'lida.

■ Barcha yaxshi narsalarga ega bo'lgan emas, ega bo'lganining go'zal jihatlarini ko'ra olgan baxtlidir.

■ Seni zimistonga tortish yoki undan chiqarishga qodir bo'lgan birgina inson bor. U ham bo'lsa – o'zing.

■ Unutma, tafakkuring hayot tarzingni belgilaydi.

■ Bugun – qolgan umringning ilk kuni. Shunday ekan, uning har bir onidan unumli foydalanib qol.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



■ Республика Каракалпакстан

«ОТ ЭТОГО ЗАВИСИТ ИХ БУДУЩЕЕ»


Дети, растущие в неполных семьях, обделенные заботой родителей, обычно оказываются в группе риска. Вместе с тем, супруги, не имеющие профессии и образования, более склонны к разводам. Если в очевидно-сти первого посыла нет сомнений, то справедливость второго подтверждает статистика.

В верности данных утверждений не раз убеждалась майор Нигора Пердебаева.

Уроженка Ходжейлийского района, Н. Пердебаева выпускница Академии МВД. Служебную деятельность начала в 2016 году следователем Ходжейлийского РОВД. Для обеспечения законных прав и интересов женщин в 2019 году в органах внутренних дел была учреждена должность инспекторов по вопросам женщин, на которую назначаются наиболее ответственные сотрудницы. На должность старшего инспектора по вопросам женщин ОПП Муйнакского РОВД,

учитывая высокую ответственность и работоспособность, была назначена героиня нашего очерка. Н. Пердебаева осуществляла целенаправленную деятельность среди женщин, оказавшихся в непростой жизненной ситуации и нуждавшихся в помощи и поддержке.

В 2021 году ей доверили новый ответственный участок, назначив старшим инспектором группы организации профилактики правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи ОПП Кунградского РОВД.



Майор Н. Пердебаева вносит весомый вклад в профилактику правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи в районе. Об этом говорят факты. Преступность среди данной категории граждан снизилась по сравнению с аналогичным периодом минувшего года, также удалось предотвратить ряд правонарушений.

– Мы сталкиваемся с ситуациями, когда неблагоприятная среда в семье напрямую влияет на воспитательно-образовательный процесс, – говорит Н. Пердебаева. – Стремимся всемерно содействовать тому, чтобы дети из социально-уязвимых семей имели возможность получать образование и востребованную профессию, ибо от этого зависит их будущее...

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

■ Джизакская область

НАДЕЖНО ОБЕСПЕЧИВАЯ ПРАВОПОРЯДОК

Внимание сотрудников УООП СОБ УВД Джизакской области, обходивших территорию махалли Иттифок, привлек мужчина, поведение которого было несколько странным.



На снимке: сотрудники ППС рядовой С. Мирзабеков (слева) и старший сержант У. Мустофокулов (справа) во время патрулирования.

Решили проверить автомашину, принадлежавшую гражданину. Интуиция сотрудников и на этот раз не подвела. В автомобиле «Кобальт» обнаружено более 20 граммов гашиша. Мужчину задержали, им оказался И. Р. – житель Коканда Ферганской области. В отношении задержанного возбуждено уголовное дело.

За девять месяцев текущего года сотрудники службы раскрыли 38 преступлений. Из них девять связаны с ограблением, два случая – с хранением наркотических веществ.

В городе Джизаке, Шараф-Рашидовском, Зааминском и Галляаральском районах осуществляется трехэтапное автомобильное и пешее патрулирование по 37 маршрутам. Исходя из криминогенной ситуации, сотрудники привлекаются и в другие районы. В круг их обязанностей также входит принятие мер природоохранного характера на территории Айдар-Арнасайской и Тузканской системы озер. В результате рейдов у браконьеров изъяты 83 метра

рыболовных сетей, четыре лодки, более тонны рыбы. Пресечено четыре факта незаконной вырубki деревьев.

В ходе патрулирования совместно с инспекторами профилактики составлено 9 233 административных протокола. К ответственности привлечены 867 человек за ношение холодного оружия, 102 человека – за ношение кастета, четыре – за ношение биты. Среди 2 186 граждан, владеющих охотничьими ружьями, проведены разъяснительные беседы по правилам их хранения. В отношении 134 лиц составлены административные протоколы за нарушение данных правил. Из незаконного обращения изъято 107 охотничьих ружей и 415 патронов.

С начала года благодаря оперативным действиям сотрудников задержаны 27 лиц, находящихся в розыске, 160 человек без определенного места жительства помещены в центры реабилитации. Обеспечено безопасное проведение 14 532 общественно-политических, культурно-спортивных и других массовых мероприятий.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.





BIZDAN KELAJAKKA NIMA QOLADI?

Abror
POYONOV



So'nggi vaqtlarda haroratning keskin isishi, anomal iqlim o'zgarishlari, O'zbekistonda yarim asrda ham kuzatilmagan qum va chang bo'ronlarining sodir bo'lishi, qishda kir qor, bahor-kuz fasllarida kir yomg'irlarning yog'ayotganligi barchamizni hushyor torttirishi zarur.

Taassufki, ekologik muhit tobora yomonlashib boryapti. Ayniqsa, bosh kentimiz – Toshkentda. Poytaxtimiz ob-havosining ifloslanishi bo'yicha dunyoda eng yomon ko'rsatkichlarni qayd etib, tez-tez dunyo reytinglarini boshqarayotganiga



Yer inson qo'lidan butun tarixiga nisbatan XX asrda ko'proq aziyat chekdi.
J. Kusto



guvoh bo'lyapmiz. Aslida, bu jiddiy signal hech birimizga tinchlik bermasligi zarur. Ko'pchilik yurtdoshlarimiz vaziyatni yaxshilash borasida tashabbuslarni amalga oshirish faqatgina ekologiyaga javobgar davlat tashkilotlari hamda ijro organlarining vazifasi ekanligini bot-bot takrorlashyapti. Ammo...

Tahlillar bu muammoni hal etishga bitta vazirlik yoki hokimliklarning kuchi, imkoniyati yetmasligini ko'rsat-

moqda. Tashabbusu targ'ibotlar kuchaytirilgan bir paytda barchamiz ekologiyani yaxshilashdek ezgu maqsad yo'lida yakdillik bilan birlashmasak, ko'zlangan natijaga erisha olmaymiz. Shu yurt hammamizniki ekan, uning havosini toza saqlash ham aynan barchamizning zimmamizda. Jamiyatimizda ekologiyaga bo'lgan munosabat juda yomon. Bunga kichik misol ham bor. Ko'pchilik yaxshi xabardorki, sinov tariqasida ma'lum vaqtlar poytaxtda

avtomobilsiz kun e'lon qilindi. Lekin bu o'zini oqlamadi. Aynan o'sha kunlari yo'llar battar tirband edi. Aksar hamyurtlarimiz ezgu ishga bosh qo'sha olishmadi yoki buni istashmadi.

Shu misolning o'zi ham tashabbus har qancha jiddiy va xayrli maqsadni ko'zlasmasin, ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, o'z ahamiyatini yo'qotib, amalga oshmay, o'lda-jo'lda qolishiga dalildir. Afsuski, yashillikni asrash masalasiga kelganda, haqiqiy fojiamiz yaqqol ko'rinadi.

Ayrimlar mam-lakatimizda ona tabiatning o'pkasi bo'lmish daraxtlarning kesilishiga muddatsiz moratoriy joriy qilganini ham pisand

qilishmayapti. Bilamiz, yam-yashil dov-daraxtlar havoni maksimal darajada tozalashda beqiyos qadr-qimmatga ega. Biroq ko'p hollarda o'sha qimmatga himmat qilolmayapmiz. Yurtimizda yashillikni saqlash, ko'chatu nihollar o'tqazish umummilliy loyihaga aylantirildi. Ularni parvarish qilishga katta kuch, mablag' sarflanyapti. Ekologik nazorat borasida ham so'nggi yillarda avvaligiga qaraganda salmoqli darajada o'sish kuzatildi.

Lekin qonunlarni amalda qay darajada qo'llay olyapmiz – bu haqiqiy og'riqli nuqtaligicha qolyapti. Bozor iqtisodiyoti hukm surayotgan hozirgi davrda shunday vaziyatlar bo'lmoqdaki, biznes va tabiat bir-biri bilan to'qnash kelib qolyapti. Bunda ko'p hollarda biznesning qo'li baland kelmoqda. Buni nafs ustunligi natijasi, desak, to'g'riroq bo'ladi. Ya'ni, biznes uchun qurilish qilish kerakmi, ko'p yillik daraxtlarga ham qaralmayotgani bor haqiqat. Bunday daraxtkushliklar oqibatida boy berilayotgan yashillik qayta tiklanishi uchun bir necha o'nlab yillar kerak bo'lishini o'ylagan odam dahshatga tushishi aniq. Yetmish, yuz yillik daraxtlarni kesib tashlash

oson, ammo ularning o'rni-ni qoplash, yangi nihollarni o'sha darajaga yetkazish hozirgi paytda igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish. Ayniqsa, bizning iqlim sharoitimizda. Ha, holimizga yig'lasak arziydi. Negaki, pul topish dardi tabiatni asrashdan ustun kelmoqda.

Shu o'rinda joriy yilda e'lon qilingan bir faktni keltirish joiz. O'zbekiston havo ifloslanishi bo'yicha yillik reytingda dunyo mam-lakatlari orasida 20-o'rinni egalladi. Tasavvur qiling, jahondagi 200 ga yaqin davlat orasida havosi iflosligi borasida eng kuchli yigirmatalikdamiz! Toshkent esa shaharlar bo'yicha TOP-3 likka kirishga odatlanib qoldi. Bizni bunga o'rgatib ham qo'yishdi. Ayrim hollarda poytaxtimiz reytingda birinchi o'rinda qayd etilmoqda.

Shuni unutmaylikki, toza havosiz hech narsa tatimaydi. Ming rivojlanib, ravnaq topmaylik, boy-badavlat bo'lmaylik, salomatlikka bevosita salbiy ta'sir qiladigan notoza ekologik muhit barcha ijobiy o'zgarishlarga soya solib qo'yadi. Unutmang, bu ketishda keyingi avlodlarimiz nosog'lom bo'lib o'sishadi. Buning sababini esa bizdan izlab qolishlari shubhasiz. Va ular haq bo'lishadi, to'g'ri qilishadi. Xo'sh, bizdan kelajakka nima qoladi? Notoza ekologik muhitmi?!...



PROBATSIIYA XIZMATI

TARG'IBOT TADBIRLARI SAMARASI

Zarbdor tumani «Do'stlik» mahallasida yashovchi Q.X. yoshi 60 yoshni qoralaganda firibgarlik jinoyatiga qo'l urgani uchun 1,5 yillik umrini jazoni ijro etish muassasasida o'tkazdi. Alisher Navoiy nomli mahallada yashovchi S.I. ham bir yarim yil panjara ortida bo'lgan. Unga nisbatan bunday jazo tayinlanishiga sodir etgan yo'l-transport hodisasi tufayli yo'lovchining hayotdan ko'z yumgani sabab bo'ldi. «Oqbuloq» mahallasida yashovchi SH.T. esa qotillik qilgani uchun besh yil davomida qamoqxonaning «nonini yedi».



Turli taqdirlarga ega ushbu shaxslarni ayni vaqtda bir jihat bir-lashtirib turadi: ularning barchasi jazoni ochiqda o'tamoqda. Umu-man olganda, Zarbdor tumani IIB Probatsiya guruhi nazorati ostidagi mahkumlar soni 156 nafarni tashkil qiladi. Guruh tomonidan sud belgi-

lagan tartib va me'yorlarga qat'iy amal qilinishi ta'minlanmoqda.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytganlarni ijti-moiy moslashtirish, kasb-hunarga o'rgatish, ishga joylashtirish cho-ralari ko'rilayotir. Bundan tashqari, qayta jinoyat sodir etish oqibatlar

tushuntirilib, targ'ibot tadbirlari uyushtirilmoqda. Qolaversa, mah-kumlarning psixologik portretlari ishlab chiqilyapti. Mazkur tadbir ularning har biriga mos tarbiyaviy uslubni qo'llash imkonini beradi.

Tumandagi mahkumlarning barchasi ish bilan ta'minlangan. Xuddi shunday, tuzalish yo'liga o'tgan 36 nafar mahkum shartli ravishda ozodlikka chiqarildi. Ak-sincha, sud tomonidan belgilangan tartib va talablarga bo'ysunmagan 6 nafar mahkumning jazosi og'ir-rog'iga almashtirilgan. Bu kabi tadbirlar mahkumlar tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

ODAM SAVDOSI

Sokin yoz oqshomlarining biri. Ham-ma mast uyquda, atrofda faqat itlarning vovullagan ovozi eshitilardi. Ota uyida-gi hovli so'risida shirin uyquda yotgan Sanobar (ismlar o'zgartirildi) tuyqus ko'rgan yomon tushidan uyg'onib ket-di. Tushida yonida bir chaqaloq tinmay yig'lardi. Tepasida esa ota-onasi, aka-lari, qavm-u qarindoshlari qo'lini nuqib, uni ko'ksidan itarishar, turli haqoratli so'zlar bilan «siylashardi».

Ko'rgan tushidan cho'chib ketgan Sanobar qornida depsinib qo'ygan bolasini siladi-yu, bo'lgan ishlarni o'ylab ko'z yosh qilib oldi.

U Sardorning shirin so'zlariga, va'dalariga ishonib, o'z ixtiyorini unga topshirganidan, katta xatoga yo'l qo'yganidan pushaymon edi. Hali turmushga chiqmay, homilador bo'lib qolgani uchun hamma uni yozg'irishini o'ylab siqilardi. Shunday o'ylar iskan-jasida nima qilib bo'lsayam bo-ladan qutulishim kerak, degan qarorga keldi.

Dardini yolg'iz yangasi Halima tushunadi. U Denov tumanidagi perinatal markazda hamshira bo'lib ishlaydi. Bu sharmandalikdan qutulishda faqat ugina yordam bera olishi mumkinligini o'ylab, yangasiga bor gapni aytdi. Halimaning maslahati bilan ular avval homilani UZD tekshiru-vidan o'tkazishdi. Tekshiruvda homila ancha katta ekanligi aniqlik bo'ldi. Yangasi:

– Xavotir olmang, akangiz chet elda-ku, bizni-kida turib turasiz. Tug'ruq vaqti kelganda tanish shifokorlar yordam berishadi, – dedi.

Sanobarning ko'ngli o'rinlaganday bo'ldi. Ammo farzandining har depsinishida uning vijdoni qiynalar va kechalari yig'lab chiqardi...

Shu tariqa, oradan bir necha hafta o'tib, tug'uruq vaqti yaqinlashdi. Bu orada Halima perinatal markazda akusher-ginekolog bo'lib ishlovchi Tojigul ismli shifokorga maslahat solib, yordam so'radi. Qaynisinglisi chaqaloqdan voz kechishini, uni birorta farzandi yo'q oilaga berish niyatida ekanini bildirdi. Bunaqa ishlarga ustasi

farang bo'lib ketgan Tojigul esa unga javoban: «Xavotir olmang, bir yo'lini qilamiz», dedi. Va ko'p o'tmay, tanishlari orqali farzandi yo'q bir oilani topdi.

Oradan vaqt o'tib, Sanobarning dardi bosh-landi. Yangasi bilan perinatal markazga yo'l oldi. Shifokor ayol – Tojigulning o'zi bemorni qabul qilib oldi, ammo tug'ilish va o'limni qayd qilish bazasiga Sanobarning emas, chaqaloqni asrab olmoqchi bo'lgan ayolning ism-familiyasini kirit-di. Chaqaloq dunyoga kelgach esa, uni asrab olmoqchi bo'lgan ayolga tug'ilganlik haqida soxta tibbiy ma'lumotnoma to'g'rilab berdi. Ushbu hujjat bilan endigina dunyoga kelgan qizaloqqa tug'ilganlik guvohnomasi olindi.

QALTIS XATO



Tojigul chaqa-loqning onasi 5 ming dollar miqdorida pul so'rayotganini, pullarni olib kelgach, chaqaloqni olib ketishi mumkinligini «xaridor»ga tushuntirdi. Aslida esa, bu pullarni o'zining cho'ntagiga urishni mo'ljallab qo'ydi.

Hammasi silliq ketayotgan paytda Sanobar o'zi bilmagan holda «qovun tushirdi». Tug'uruq-xonada bemorlarni ro'yxatdan o'tkazayotgan hamshiraga o'zining haqiqiy ism-sharifini aytib qo'ydi. Tojigulning rejasiga binoan u chaqaloqni asrab olayotgan ayolning ism-sharifini aytishi kerak edi.

Shundan so'ng Tojigulning paytavasiga qurt tushdi. U bu muammoni ham o'zi hal qilishini aytib, mijozni tinchlantirdi. Ammo Tojigulning kirdikorlari fosh bo'la boshladi...

Tug'uruqdan keyin o'z xayollariga cho'mib shifoxona palatasida yotgan Sanobarning yoni-ga huquq-tartibot idorasining ikki xodimi kelib, shifokor Tojigul uning farzandini pullayotganini aytgach, hushi uchdi, qo'llari qaltiragancha:

– Men... men... bolamni sotaman demadim, shunchaki farzandsiz kishiga berishini so'radim, xolos, – dedi-yu, yig'lab yubordi.

Xodimlar ketgach, Sanobar holsizgina devorga suyandi. Mehri iyib ketdimi, shu tobda qizini ko'rgisi keldi. Jajjigina Sayyora esa qovoqlarini uygan-cha shirin uyquda yotardi. Axir, murg'akkina qizaloqning hech

narsadan xabari yo'q, uning aybi nima? Xayoliga kelgan fikrdan Sanobarning vijdoni qiy-naldi, ko'zlaridan duv-duv yosh quyila boshladi.

Bu orada Tojigul ro'yxatga olgan hamshira-ni og'zini yopgan bo'ldi-yu, puldan quruq qolib ketmaslik uchun mijoz bilan uchrashuv belgiladi. Denov tumanidagi So'fi Olloyor mahallasi hududi-da undan 5 ming AQSH dollari miqdoridagi pulni olayotgan vaqtida tuman IIB JQB hamda DXX tuman bo'limi xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

...Sanobarning tug'uruqxonadan chiqadigan vaqti bo'ldi. Bu ostonaga farzandidan qutulish niyatida qadam qo'ygan ayol endi onalik taftini his qil-gan, xatolarini tushunib yetgan, o'ziga nisbatan ishonchi ortgan boshqa bir insonga aylangandi. «Ha, butun dunyo qarshi tursa-da, u Sayyorasini hech kimga bermaydi». Sanobar shularni xa-yolidan o'tkazarkan, qizalog'ini mahkam bag'riga bosgancha tug'uruqxona hov-lisidan yurib, ko'cha sari yuzlandi...

Shohjahon RAHIMOV,
mayor,
Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Buyuk ajdodlarimiz

TOROBIY – VATANPARVARLIK TIMSOLI

Ko'hna Buxoroning Jondor tumani markazida bundan uch yil muqaddam salkam besh gektar maydonni egallagan Vatanparvarlik bog'i barpo etilgan. Unga xalq qahramoni Mahmud Torobiy nomi berilgan. Ushbu go'shada harbiy-texnika vositalari, shuningdek, turli qurollar, ko'rgazmali vositalar o'rnatilgan. Bog' to'rida esa Mahmud Torobiy haykali qad rostlagan.



Xo'sh, Mahmud Torobiyning o'zi aslida kim? U qanday jasorat ko'rsatgan? Bu kabi savollar gazetxon uchun qiziqarli, albatta.

Mahmud Torobiy Buxorodan uch farsax naridagi Torob qishlog'idagi oddiy kosib, hunarmand oilasida tavallud topgan. Xurosonlik muarrix va yirik davlat arbobi Alauddin Atomalik Juvayniy (1226–1283) qalamiga mansub «Tarixi jahongushoy» («Jahon fотиhi tarixi») asarida yozilishicha, Torob qishlog'ida dehqonlar, hunarmandlar majlis o'tkazib, o'yin-kulgi qilar ekan. Xuddi shu majlislarda ular mo'g'ul xonlari, dorug'alari, bosqoqlari zulmidan bir-birlariga shikoyatlar qilib, o'zlarining mashaqqatli hayotlari xususida ham mulohaza yuritgan, deyiladi. Mahmud Torobiy degan elakchi esa majlislarda asosan xalqning yuragidagi dardlarni aytib, uning ko'ngliga cho'g' tashlaydi, xalq unga ixlos qo'yadi, ishonadi. Shu bois ham 1238-yili Buxoro vohasida qo'zg'olon ko'tariladi. Mahmud Torobiy qo'zg'olonga boshchilik qiladi.

Mahmud Torobiy o'z oldiga chingiziylar

hokimiyatini yo'q qilish va «olamni» ko'chmanchi istilochilar iskanjasidan ozod etishdek muhim siyosiy vazifani qo'yadi. Bu kurashda u yolg'iz emas, tarafdorlari behisob edi. U Buxoroda sulton Muhammad Xorazmshoh zamonasidagi tartiblarni joriy etmoqchi bo'lgan. Hatto o'zini «sulton» deb e'lon qilgan.

Aqoid ilmi olimi Shamsiddin Mahbubiy Mahmud Torobiyning ozodlik g'oyasini faol qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ham M. Torobiy harakatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan Shamsiddin Mahbubiy bilan bog'liq. Ikkisi hamkorlik qilishadi. Ayniqsa, qo'zg'olon yo'lboshchisi uchun Mahbubiy yangidan-yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Mahmud Torobiyning ozod hayot haqidagi fikri qurolli kurashni boshlash kerak, degan qat'iy qarorga aylanadi.

Buxoro atroflaridan odamlar guras-guras kelib, uning safiga qo'shila boshlaydi. Birpasda lak-lak lashkar to'planadi, bu lashkar yomon qurollangan bo'lsa-da, ona tuproqni kelgindi istilochilardan tozalashga qat'iy bel bog'lagan vatanparvar kishilar edi. Mahmud Torobiy Buxoroni



mo'g'ul bosqinchilaridan tozalagach, o'z nomini sulton sifatida xutbaga qo'shib o'qitadi. Mahmud Torobiy Buxoro bundan buyon mustaqil ekanligini, mo'g'ul xonlariga itoat qilmasligini ta'kidlaydi.

Mahmud Torobiy eng mashaqqatli kunlar hali oldinda ekanligini yaxshi bilardi. Yaqin orada Mahmud Yalavoch boshchiligida Xo'janddan behisob mo'g'ul bosqinchilari Buxoroga kelishiga aqli yetardi. U yana shuni bildirtdi, shahardan qochgan Buxoroning «ulug' zotlari» qarshilik ko'rsatishni to'xtatmaydilar, qanday qilib bo'lsa ham, boy berilgan hokimiyatni qaytarib olishga urinadilar.

Darhaqiqat, shahardan qochgan amirlar, sardrlar Karmanada shoshilinch kuch to'plab, mo'g'ul bosqoqlarini ishga solib, jangga hozirlik ko'rar edilar. Karmana yaqinida jang bo'ladi. Bu jangda Mahmud Torobiy halok bo'ladi. Shuningdek, ushbu jang uning do'sti Shamsiddin Mahbubiy ham bu yorug' dunyodan olib ketadi.

Qo'zg'olonchilar Mahmud Torobiyning o'rniga uning ikki ukasi Muhammad bilan Alini bosh qilib ko'taradilar. Afsuski, Muhammad bilan Ali Mahmud Torobiy boshlagan ishni poyoniga yetkaza olmadi. Xo'janddan kuchli qurollanib kelgan mo'g'ullar qo'zg'olonchilarni mag'lub qiladi. Shu tariqa Mahmud Torobiy boshlab bergan xalq qo'zg'oloni mag'lubiyatga yuz tutadi.

Garchand Torobiy qo'zg'oloni u qadar uzoq

davom etmagan bo'lsa-da, o'z tabiati jihatidan XIII asrdagi O'rta Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun kurashi tarixida alohida o'ringa ega.

Mahmud Torobiy o'z xalqining mustaqilligi yo'lidagi, ularni mo'g'ul istilochilari zulmidan ozod bo'lishi uchun o'z jonini fido qildi. Torobiy yo'lboshchiligidagi qo'zg'olon xalqimizni qullik, qaramlik asoratiga soluvchi mo'g'ul istilochilariga qarshi olib borilgan ozodlik kurashi tarixida yorqin iz qoldirdi.

Mahmud Torobiyning orzusiga erishgan yurt-doshlari uning nomini abadiylashtirishni o'zlarining insoniylik burchlari deb bilishadi. Bugun Buxoro viloyatidagi ko'pgina tumanlarda, jumladan, u tug'ilib o'sgan Jondor tumanida Mahmud Torobiy nomidagi ko'chalarining borligi, tumandagi Madaniyat saroyi va Vatanparvarlik bog'i uning nomi bilan atalishi buyuk ajdodimizga bo'lgan yuksak ehtirom namunasidir. Shuningdek, Oybekning «Mahmud Torobiy» dos-toni, professor Rahim Vohidovning «Qasoskorning nomi barhayot» asari, 2021-yilda Buxoro davlat universiteti dotsenti Azalshoh Hamroyev, Buxoro muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi Mavluda Rahmonovalar muallifligida «Mahmud Torobiy – xalq qahramoni» kitob-albomning yaratilganligi uning xotirasiga yana bir karra xalqning hurmat-e'tiboridan dalolat beradi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.





Salomatlik saboqlari

GRIPPGA QARSHI EMLASH SHARTMI?

Kuz nafaqat oltin tusli barglari bilan ko'zni qamashtiruvchi fasl, balki gripp davri hamdir. Yilning aynan shu davrida, aniqrog'i, an'anaviy grippga qarshi emlash mavsumi boshlanadi. Va ko'pchilik emlanish kerakmi yoki yo'q, degan tanlov borasida bosh qotiradi. IIV Markaziy poliklinikasi terapiya bo'linmasi boshlig'i, kapitan Muzaffar Hasanovning tavsiyalari aynan shu xususida.

– So'nggi bir necha yil ichida gripp virusi inson xotirasidan koronavirus tomonidan deyarli chiqarib yuborildi. Biroq «Kasallikni davolagandan ko'ra, oldini olgan ma'qul», deya bejiz aytilmagan. Demak, har doim kasallikdan saqlanish choralari ko'rish zarur. Yaxshi bilamizki, kuz-qish faslida respirator infeksiyalik kasalliklar ko'p uchraydi. Gripp – yuqumli kasalliklar sirasiga kirgani uchun bu mavsumda xavflilik darajasi ortadi. Chalinish mavsumi kuzda boshlanadi va maygacha davom etishi mumkin.

Agar emlanmasangiz, kasallikka chalinish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Unutmang, emlash virusga va u keltirib chiqaradigan asoratlarga qarshi eng yaxshi himoya hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, emlashdan so'ng kasallikka chalinish xavfi 70–90 foizga kamayadi.

EMLASH QANDAY ISHLAYDI?

Har qanday virus va bakteriyada oqsil mavjud. Biz uchun ular antigen hisoblanadi. Bu oqsillar organizmga tushganda immun tizimi tomonidan bu oqsillarga qarshi antitanachalar

– infeksiyani o'ldirishi kerak bo'lgan oqsillar ishlab chiqariladi.

Vaksina tarkibini infeksiyaning kuchsizlantirilgan yoki o'ldirilgan qo'zg'atuvchilari tashkil qiladi. Ular organizmda kasallik chaqira olmaydi, ammo immunitet ularga qarshi antitanachalar hosil qiladi. Keyinchalik haqiqiy virus organizmga hujum qilganda, antitanachalar tayyor bo'lgani uchun immun tizimi darhol javob beradi. Shu sababli kasallik rivojlanmaydi yoki yengil shaklda o'tib ketadi.

EMLASH DOIM YORDAM BERADIMI?

Vaksinalarning grippga qarshi samaradorligi o'rtacha 70–80 foizni tashkil qiladi. Bu yuqori ko'rsatkich emas, ammo buning o'z sabablari bor. Birinchidan, gripp virusining turlari ko'p va u tez mutatsiyalanadi. Ikkinchidan, vaktsinatsiya ushbu yilda epidemiyaga sabab bo'lmagan, ommalashmagan virusdan himoya qila olmaydi.

Zamonaviy vaksinalarning samaradorlik darajasi ancha yuqori va



emlangan odamlarda grippning asoratlari kuzatilmaydi.

langanini bildiradi va bir-ikki kunda o'tib ketadi.

QANDAY ASORATLAR BO'LISHI MUMKIN?

Asosiy xavf – allergik reaksiyalar hisoblanib, organizm vaktsinaning oqsil komponentiga reaksiya bildiradi. Agarda sizda ilgari emlash natijasida muammolar yuzaga kelgan bo'lsa, allergeni yo'q vaktsina tanlang yoki bo'lmasa, mutlaqo emlatmaganingiz ma'qul. Yana bir kam uchraydigan og'ir asoratlarga asab tizimining zararlanishi kiradi. Tana haroratining 37,5 °S gacha ko'tarilishi, in'yeksiya qilingan joyda qizarish va shish paydo bo'lishi – organizmning normal reaksiyasi bo'lib, immun javob shakli-

KIMLARGA EMLANISH MUMKIN EMAS?

Emlashga absolyut qarshi ko'rsatmalarga aytib o'tilgan allergiya va og'ir immunodefitsit holatlar kiradi. Shuningdek, eski surunkali kasalliklar qo'zigan davrda ham vaktsinatsiya qildirilmagani va remissiya holatini kutgan ma'qul.

Har qanday holatda ham, vaktsinatsiya qilishdan oldin o'zingiz va farzandingiz shifokor ko'rigidan o'tkazilishi va vaktsinatsiya qilish-qilmaslik ular tomonidan hal qilinishi lozim.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
yozib oldi.

СПОСОБЫ ЗАЩИТЫ ОТ ПРОСТУДЫ

Как максимально обезопасить себя от вирусов ОРВИ, а также поддерживать иммунитет в холодное время года? Рекомендации, которые могут помочь сохранить здоровье в сезон простуд и гриппа.

Одна из причин того, что человек чаще простужается осенью и зимой – это охлаждение

кровообращения, значит, замедляется и движение иммунных клеток, сражающихся с патогенами.

Кроме того, для защиты от простуды полезно промывать нос соленой водой.

Такое промывание эффективно снижает количество микробов в носовых ходах, не дает вирусам возможности размножиться и про-

рой не ниже 40 градусов.

В сезон простуд и гриппа важно не допускать недостатка витамина D в организме. Дефицит витамина D сопряжен с уменьшением выработки веществ, стимулирующих иммунную систему. Риск простудиться в таких обстоятельствах повышается как минимум на треть. Лучшими источниками витамина D являются печень трески, жирная рыба, яйца, кисломолочные продукты.

Также врачи рекомендуют есть меньше сладкого. Научные данные говорят о том, что избыток сладкого в рационе угнетает активность иммунных клеток-фагоцитов. Тем, кто не может без сладостей, следует есть вместо печенья и конфет фрукты и сухофрукты.

Помимо этого, эффективным средством защиты от простуд и гриппа является 8-часовой сон. Люди, которые спят меньше 7 часов в сутки, в три раза больше подвержены простудным инфекциям.



носа, советуем защищать нос от переохлаждения и в буквальном смысле согревать, например, вдыхая пар. Если в носу снижается температура, это замедляет

кать внутрь организма.

Еще один совет от специалистов: стирать одежду в горячей воде. В разгар вирусных заболеваний лучше стирать в воде температу-

ЧЕМ ПОЛЕЗЕН ОТВАР ШИПОВНИКА

Шиповник обладает кроветворным действием, повышает сопротивляемость организма к вредным воздействиям окружающей среды, нормализует работу желчного пузыря и печени, прекрасно борется с авитаминозом. Он тонизирует организм, повышает иммунитет. Также обладает мочегонным эффектом, что благотворно влияет на работу почек и желудка.

Как правило, для лечения или восстановления здоровья используют отвар шиповника.

Чтобы достичь максимального оздоровительного эффекта, шиповник необходимо правильно заваривать. Рекомендуется готовить настой именно в термосе, это позволит полезным веществам не только полнее раскрыться, но и сохраниться.

Для приготовления отвара необходимо: промыть плоды проточной водой и измельчить в ступке, это позволит ягодам быстрее отдать полезные свойства напитку. Поместите измельченный шиповник в термос с расчетом 60-100 грамм (2-3 столовых ложки) на литр воды. Залейте плоды кипяченой водой, закройте крышку. Витамин C разрушается при высоком тепловом воздействии, поэтому не используйте крутой кипяток.

Через 5-7 часов отвар будет готов. Необходимо процедить напиток и перелить в чистую банку или графин.

В отвар можно добавить курагу или изюм, душицу, мелису, чабрец или имбирь.

Перед применением проконсультируйтесь с врачом.



 «Яшил макон»


РЕАЛИЗУЕТСЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНЫЙ ПРОЕКТ

В столичной области, как и по всей стране, полным ходом идет реализация общенационального проекта «Яшил макон», предусматривающего кардинальное увеличение площади зеленых зон. В благородное дело достойный вклад вносят сотрудники органов внутренних дел.

Личный состав территориальных и отраслевых подразделений ГУВД Ташкентской области принимает активное участие в озеленении территории, прилегающей к Ахангаранскому шоссе. Только за один день акции вдоль автодороги ими было высажено несколько тысяч саженцев плодовых и декоративных деревьев, соответствующих климатическим условиям региона. Особое внимание уделяется прокладке системы полива.



В течение объявленных в республике «ударных дней» по осенней посадке деревьев вдоль шоссе на расстоянии трех киломе-

тров будет высажено свыше 30 тысяч саженцев.

Соб. корр.

Ташкентская область.



В нынешнем году в Кашкадарьинской области запланировано высадить 6 млн. 947 тыс. саженцев фруктовых и декоративных деревьев, кустов.

В акции по осенней посадке деревьев в городе Карши приняли участие руководители секторов. На площади в 4 гектара высадили порядка двух тысяч саженцев. Мероприятия проекта «Яшил макон» набирают обороты во всех городах и районах области.

Соб. корр.

Кашкадарьинская область.



MUNAJJIMLAR BASHORATI (6-noyabrdan 12-noyabrgacha)



Qo'y. Bu davrda rejalashtirilgan barcha yumushlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Seshanba va chorshanba eng samarali va omadli kunlar hisoblanib, bu foydali va istiqbolli ishlarning uddasidan chiqish uchun yaxshi imkoniyatdir. Tashabbuskorlik va ishdagi faollik barcha moliyaviy masalalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga xizmat qiladi.



Buzoq. Ishxonada sizdan kamchilik topishga urinishlari mumkin, biroq mehnatsevarlik ortidan rahbariyat va hamkasblarning fikrini o'zgartirishingiz mumkin. Bu hafta oila a'zolari, ayniqsa, farzandlarga nisbatan qattiqqo'l bo'lish talab etiladi. Biroq ularning ko'nglini og'ritib qo'yishdan qoching, yuzma-yuz olib borilgan suhbat va tushuntirish ishlarining o'zi kifoya.



Egizaklar. Bu hafta quvonchli xabar bo'lishi kutilmoqda. Anchadan beri umid bog'lagan va ro'yobini kutgan orzuvingiz ushaladi. Lekin shu tufayli hamkasblar bilan tarang munosabatlar, g'iybat va bekorchi gap-so'zlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday paytda oila a'zolarining ko'magiga suyaning.



Qisqichbaqa. Bu davrda rejalashtirilgan muhim ish va uchrashuvlar muvaffaqiyatli kechadi. Davr bilan hamnafas bo'lib, mavjud bilimlarni yangilari bilan uyg'unlashtiring. Xizmatdoshlar uchun umumiy manfaatlarni ko'zlovchi insonga aylaning. Jizzakilik va ta'sirchanlikni unuting.



Arslon. Ayni dam hayotingizda unumli va jadal rivojlanish jarayoni ketmoqda. Eski qarashlarni o'tmishda qoldiring. Tanqidni xolislik bilan qabul qiling, yo'l-yo'lakay xatolarni tuzatib ketishga o'rganing. Birgalikda samarali ishlarni amalga oshirish uchun yaqinlaringiz bilan kelishib qaror qabul qilishga odatlaning.



Parizod. Bu davrda faqat o'zingiz uchun maqbul va yoqimli bo'lgan ishlar bilan shug'ullanib, qolganini keyingi hafta rejasiga kiriting. Faoliyat yuritayotgan joyingizda ish yuklamasini orttirishlari mumkin. O'z ustida ishlash, tajriba orttirish uchun qulay davr. Ijod qilish, yaratish va barpo qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar bu haftada ijobiy natija beradi.



Taroz. Bu hafta rejadagi barcha yumushlarni o'z vaqtida bajarishga urining. Biroq ishga kirishishdan oldin uning nechog'lik ahamiyatli va foydali ekanini jiddiy o'ylab ko'ring. Shunda ortiqcha ovoragarchilikning oldini olgan bo'lasiz. Haftaning ikkinchi yarmi ish faoliyati bilan bog'liq kelishuvlarni amalga oshirish uchun maqbul vaqt.



Chayon. Atrofingizdagi ba'zi odamlar bilan munosabatda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Katta ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy loyihalarga hozircha qo'l urmaganingiz ma'qul. Ammo uy ishlari va tashvishlarini hal etishni aslo ortga surmang. Bu hafta xonadoningizda yengil ta'mir yoki katta tozalash ishlarini amalga oshirish uchun qulay davr.



O'qotar. Har qanday ishda to'g'anoq va to'siqlarga uchrashingiz mumkin. Kutilmagan natijalarga tayyor turing va zarurat tug'ilganda yordam so'rashdan chekinmang. Atrofdagilarga nisbatan va yangi do'st tanlashda ehtiyotkor bo'ling. Bo'sh vaqtigingizni sevimli va qadrlil insonlar davrasida o'tkazishga harakat qiling.



Tog' echkisi. Haftaning birinchi yarmida og'ir yoki davomli mehnatdan imkon qadar yiroq turing. Chunki bu vaqtda salomatligingiz pand berishi mumkin. Keyingi kunlar moliyaviy daromad va ish faoliyatidagi o'sishni va'da qilmoqda. Dam olish kunlarini oila davrasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qiling.



Qovg'a. Hafta boshida yaxshi kayfiyat va har bir ishda muvaffaqiyat sizga yor bo'ladi. Ikkinchi kuni biznesga oid turli takliflarni qayta ko'rib chiqishga, imkon qadar qo'shimcha daromad manbaini izlashga harakat qilib ko'ring. Dam olish kunlari oila a'zolari bilan nizoga bormaslikka harakat qiling.



Baliq. Oilaviy munosabatlarga putur yetmasligi uchun jahl va g'azabga erk bermay, aql bilan ish yuriting. Yaqinlaringizning ko'nglini og'ritishdan imkon qadar yiroq turing. Bu shunchaki o'tkinchi davr bo'lib, tez orada hammasi iziga tushib ketadi. Bu hafta yirik sarf-harajatlarni chetga surib turing. Hafta so'ngida uydan tashqariga chiqib, tabiat qo'ynida maroqli hordiq oling.



YUKSAK CHO'QQILARNI ZABT ETIB



Xitoyning Xanchjou shahrida bo'lib o'tgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida umumiy hisobda 5-o'rinni egallab, jami 71 ta medal jamg'argan O'zbekiston terma jamoasining g'oliblari safida ichki ishlar organlari xodimlari ham ko'pchilikni tashkil etdi. Xususan, Toshkent shahar IIBB TVBSB moddiy-texnika ta'minoti guruhi katta mutaxassisi, leytenant Abdumalik Xalokov boksda, IIV huzuridagi JIED Tezkor harakatlanuvchi otryad ikkinchi ishg'ol qilish guruhi kichik mutaxassis-o'qchisi, safdor Murodjon Yo'ldoshev va Toshkent viloyati IIBB to'rtinchi mintaqaviy hududi TVBSO ikkinchi ishg'ol qilish guruhi kichik mutaxassis-haydovchisi, safdor Muzaffarbek To'raboyev dzyudoda oltin medal sohibi bo'lgan bo'lsa, Toshkent viloyati IIBB to'rtinchi mintaqaviy hududi TVBSO kichik mutaxassis-haydovchisi, safdor Shohruxon Baxtiyorov dzyudoda, IIV Qorovul qo'shinlari 7534-harbiy qism 4-nazoratchilar guruhi nazoratchisi,

kichik serjant Yekaterina Voronina yengil atletikada kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, IIV «Dinamo» jismoniy tarbiya-sport jamiyati respublika kengashi maxsus jismoniy tayyorgarlik markazi texnik-mas'ul ijrochisi, u-shu bo'yicha ko'plab musobaqalar g'olibi, kichik serjant Darya Latisheva Osiyo o'yinlari bronza medali sohibiga aylandi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasb bayrami munosabati bilan IIV Madaniyat saroyida bo'lib o'tgan tantanali tadbirda ularga qimmatbaho esdalik sovg'alari va pul mukofotlari topshirildi.

– Shunday ulkan g'alabalarga erishishimiz uchun sharoit yaratib bergan Prezidentimiz va vazirlik rahbariyatidan cheksiz minnatdorman, – deydi jahon chempioni, leytenant Abdumalik Xalokov. – Ayni paytda 2024-yil Parijda bo'lib o'tadigan 33-olimpiya o'yinlariga puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz. Nasib qilsa, unda ham yuksak cho'qqilarni zabt etamiz.

O'z muxbirimiz.



YASHIL MAKON

«Yashil makon» umummilliy loyihasining kuzgi mavsumida Namangan viloyati IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan 15 turdagi 150 tup manzarali gul va daraxt ko'chatlari bino hovlisiga o'tqazildi.

Mavsum tanlamas gullar bahri-dilingizni ochsa, manzarali daraxt ko'chatlari boshqarma hovlisiga yanada ko'rk bag'ishladi.



Postda
Ha nocy

MUASSIS:

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora **SADIKOVA**

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon **FAYZIYEV**
kapitan Aziza **BOHODIROVA**

Mas'ul kotiblar –

Jahongir **SHAROFBOYEV**
Erkin **SATTOROV**

Navbatchilar –

kapitan Mixli **SAFAROV**
Radik **TUMPAROV**

Sahifalovchilar –

Zokir **BOLTAYEV**
Ilhom **JUMANOV**
Akbar **BOLTAYEV**

Fotomuxbirlar –

Abu **KENJAYEV**
Ikrom **HASANOV**

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №V-3242.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50466 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz